

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**  
**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA PEDAGOGIK**  
**TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bajardi: “Boshlang’ich sinf va sport  
tarbiyaviy ish” ta’lim yo’nalishi bitiruvchisi  
4 kurs talabasi **Nishonboeva I**

---

Ilmiy rahbar: f.f.n. Mirhaydarov

**Guldiston – 2016**

## **MUNDARIJA:**

KIRISH.....	3-8-bet
1-BOB. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari.....	9-21-bet
1.1. Pedagogik texnologiyalarning mazmuni va mohiyati..	9-21-bet
1.2. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va metodolik asoslari....	22-35-bet
2-BOB. O'qish darslarini pedagogik texnologiya asosida tashkil etish metodikasi.....	36-51-bet
2.1. O'qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning shakllari.....	36-51-bet
2.2. Boshlang'ich sinf o'qish darslari jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash usullari.....	52-70-bet
Umumiy xulosa va tavsiyalar.....	71-73-bet
Foydalanilgan adabiyotlar.....	74-76-bet
Ilovalar.	

## **Kirish**

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekistonimizda mustaqillik sharofati bilan barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirildi, iqtisodiy rivojlantirishning o'zbek modeli, kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilib, kelajak avlodni tarbiyalash borasida zarur shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bugungi kunda dunyo miqiyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalarda qatorida ta'lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi barchamizga ma'lum. Bunday sharoitda inson faoliyatining nazariy va amaliy qirralari ham uzluksiz yangilanib turishi tabiiydir. Pedagogik faoliyat ham alohida va murakkab mehnat turi sifatida bundan mustasno emas. Pedagoglar o'z faoliyatlarida kafolatlangan natijalarni qo'lga kiritishga urinmoqdalar.

XXI asrni olimlarimiz tomonidan axborot texnologiyalari asri deb tan olinganligi pedagogik va axborot texnologiyalari kun sayin barcha sohalarda rivojlanayotgani, jumladan, ta'lim sohasida ham yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish an'anaviy o'qitish usullaridan ko'ra samarali va yuqori natijalarga olib kelmoqda. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'zda tutilganidek, pedagogik va taxborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini yangi axborotlar bilan ta'minlash rivojlanib bormoqda.

Shuning uchun ham pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi.

Barkamol avlodni tarbiyalash – "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dastiri"da Respublika ta'lim xodimlari zimmasiga o'ta ma'suliyatli vazifalar yuklangan. Bu vazifani amalga oshirish jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qishiga yangicha yondashish, o'qituvchilarni o'z kasbiga va tarbiyalanuvchilarga o'ta ma'suliyatli munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Bu dastur yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy, ijtimoiy faollikka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to'g'ri yo'l topa olish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol

vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi.

Mamlakatimiz rahbari I. A. Karimov ta'kidlaganidek: «Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zaruriyat sezila boshlandi»<sup>1</sup> Yurtimizning kelajagi, uning ertangi taqdiri, ozod va obod jamiyat qurilishiga erishishimiz ham ma'lum ma'noda shu islohatlarning natijasiga bog'liq edi. «Chunki ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad- ozod va obod jamiyat barpo etib bo'lmaydi»<sup>2</sup> degan yurtboshimizning fikrlaridan ta'lim-tarbiya islohati, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga erishish mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillardan biri ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Mamlakatning ertangi kuni esa, dunyoqarashi keng maktab bolalari va zamonaviy, salohiyatli o'qituvchi-murabbiylarga ko'p jihatdan bog'liqdir.

O'quv-tarbiya ishlari jarayonida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda ularning amaliy mashg'ulotlarda pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari, elektrondarsliklar, versiyalar va multimedialardan foydalana olishi muhimdir. Bu esa o'quvchilarda mutsaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalash, o'quv faoliyatini tahlil qilish, itsiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini orttirish ularning ichki

---

<sup>1</sup>I.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur»jurnali, 1998y, 2-son, 29 bet.

<sup>2</sup>O'sha joydan. 29-30 bet.

ehtiyojiga aylantirilishini talab etadi.

Prezidentimiz I.Karimov «Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yuksaltirishdin mavzusidagi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi nutqida: «Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz»,<sup>3</sup> - degan edi. Bunday ulug' maqsadni amalga oshirish sohasidagi vazifalar «Barkamol avlod yili» Davlat dasturida ham belgilab berildi.

Prezidentimiz tomonidan kelajak avlod tarbiyasiga berilayotgan bunday katta e'tibor ta'lim tizimi va pedagoglar zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Bu vazifalarni amalga oshirish chuqur bilim va katta mahoratni talab etadi. Ta'lim tizimiga yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kun ta'limi olgiga qo'yilgan muhim vazifalardir.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladiyu Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uni pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta'limning yangi-yangi yo'l va usullarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda

---

<sup>3</sup> I.Karimov «Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yuksaltirishdir». T.: O'zbekiston, 2010-y. 48-bet.

muhimdir. Shuning uchun ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kelgusi faoliyatga tayyorlashda, pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishga tayyorlash bugungi ta'limning oldiga qo'yilgan talablardan biridir. Chunki pedagogik texnologiyalar, birinchidan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini oson va qiziqib o'rganishlari uchun imkoniyat yaratasa, ikkinchidan, o'qituvchining ham professional o'sishiga, ham ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi.

Inson har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlari va mexanizmlarini yaratish, eskicha tafakkur va ijtimoiy xulq-atvor andozalarini o'zgartirish, respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadidir. Xalqning boy zamonaviy madaniyati, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiya sohasidagi yutuqlari asosida mutaxassislar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida tadbqiq qilish hozirgi davr talablaridan biri hisoblanadi. Shularni inobatga olib biz o'z bitiruv malakaviy ishimizning mavzusini "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda pedagogik texnologiyalarda foydalanish" deb nomladik.

#### **Bitiruv malakaviy ishimizning maqsadi:**

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos shakllari va usullarini amalda qo'llash.

#### **Bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy o'rganilganlik darajasi :**

Pedagogik texnologiyalarni tadbqiq qilish muammolari haqida A.G.Rivin va V.K.Dyachenko tomonidan jamoaviy o'qitish, D.B.Elkonin, V.V.Davidov, L.V.Zankovlar tomonidan ilgari surilgan rivojlantiruvchi innovatsion ta'lim to'g'risidagi qarashlar o'z vaqtida ma'lum ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga boshqa innovatsion ta'lim texnologiyalari: dialektik o'qitish usullari (A.I.Goncharuk, V.L.Zarina), o'qitishning individual yo'nalishli usuli (A.A.Yarulov), evristik o'qitish (A.V.Xutorskoy) dialog madaniyati (V.S.Bibler, S.Yu.Kurganov), loyihali o'z-o'zini refleksiya (G.P.Shedrovitskaya) va boshqa rus olimlarini misol keltirishimiz mumkin.

Hozirgi kunda pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari va ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha bir qator vatandosh olimlarimiz ham samarali izlanishlar olib bormoqdalar. Bulardan R.X.Jo'raev, N.X.Azizxadjueva, U.N.Nishonaliev, M.S.Saidahmedov, B.L.Farberman, H.Ishmatov, X.Abdukarimov, K.Zaripov, B.Ziyomhammadov, M.Kamoliddinov, T.G'afforova, N.X.Avliyoqulov, Q.T.Olimov, R.Ishmuhammedov, O'.Tolipov, T.Nazarova, A.E.Kenjaboevlarning tadqiqot ishlarini alohida ta'kidlash lozim. O'zbekistonda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda Respublikada pedagogik texnologiyalarni nazariy, amaliy asoslarini, ularning mukammalligini o'rganish va o'quv-tarbiyaviy jarayonga tatbiq etish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan tadbirlar, deb qaralyapti. Bir guruh mutaxassislarimiz pedagogik texnologiyalar davr talabi, shu bilan birga yangi zamonaviy yo'nalish ekanligini e'tirof etib, ta'lim-tarbiya jarayoniga milliy xususiyatlarni kiritgan holda qo'llashni tavsiya etayotgan bo'lsalar, ikkinchi guruh mutaxassislar ta'lim-tarbiyadagi inqirozdan qutilish va moslash mexanizmlarini yaratish, ta'limga siyosatning bosh yo'li sifatida qarash zarurligini isbotlamoqdalar.

#### **Bitiruv malakaviy ishimizning predmeti:**

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida pedagogik texnologiyalarning ilmiy tashkiliy hamda amaliy jihatlarini tadqiq qilish jarayoni.

#### **Bitiruv malakaviy ishimizning ob'ekti:**

Boshlang'ich sinf o'quvchilari va ularning ta'lim jarayonida qo'llanadigan pedagogik texnologiyadan foydalanish yo'llari.

#### **Bitiruv malakaviy ishimizning vazifalari:**

1. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish va tahlil qilish.
2. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarida qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarning ilmiy aspektlarini didaktik va uslubiy talablarini ishlab chiqish.
3. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida pedagogik texnologiyalarning yangi variantlarini qo'llab ko'rish.

**Bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy farazi:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish darslarining sifat va samaradorligi oshadi agar:

- Boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik texnologiyalarni mukammal egallagan bo'lsa;
- O'qituvchi o'z ustida muntazam ravishda ishlasa va doimiy ravishda yangiliklardan boxabar bo'lsa;
- Pedagogik texnologiyalarni o'qish darslarida to'g'ri qo'llab, ulardan unumli foydalana olsa;

**Bitiruv malakaviy ishimizning yangiligi:**

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muammolari nazariy jihatdan o'rganildi; o'qish darslaridan bir soatlik nazariy va amaliy dars rejalari ishlab chiqildi.

**Bitiruv malakaviy ishimizning amaliy ahamiyati:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishni samarali tashkil etish, pedagogik texnologiyalarning mazmuni, shakl va vositalari, ta'lim berishda pedagogik texnologiyalardan to'g'ri va unumli foydalanish uslublari, kafolatlangan natijaga erishish uchun olib borilayotgan ta'lim sohasidagi yangiliklarni o'rganish, ilmiy asoslash va amaliyotda foydalanish ishning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

**Bitiruv malakaviy ishimizning metodologik asosi:**

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Qonunlari, "Davlat ta'lim standartlari", oliy ta'limi to'g'risidagi Nizomlar va me'yoriy hujjatlar, sharq mutafakkirlarining fikrlari, prezident I.A.Karimov asarlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy tadqiqot ishlari bo'yicha ilmiy-uslubiy ishlar va metodikalar tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishimizning metodlari:**

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, suhbat, anketa, test-nazorat usullari, savol-javob, pedagogik tajribalar o'tkazish, to'plangan natija va dalillarni matematik-statistik jihatdan ishlash, qayta ishlash, umumlashtirish va xulosalash.

Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, 2 bob, 4 paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

## **I.BOB. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning ilmiy nazariy asoslari.**

### **I.1. Pedagogik texnologiyalarning mazmuni va mohiyati.**

Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lim samaradorligi pedagog va o'quvchi faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog'liq.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tuzilmalar yaratilayotgan hozirgi kunda keng, chuqur bilimli va bilimlarni amalda qo'llay oladigan shaxslarga talab kuchayib bormoqda. Bilimdon va tadbirkor, ijtimoiy faol shaxs jamiyat hayotida, mehnatda o'zining o'rnini topadi. Bunday faollik vujudga kelishi uchun bilimdon va harakatchan, milliy istiqlol g'oyasiga sodiq bo'lgan shaxsni shakllantirish kerak va avvalo har tomonlama rivojlangan, sog'lom fikr yuritadigan, jahon yoshlari bilan har sohada raqobatbardosh, ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalamoq zarur. Intellektual salohiyatli barkamol yoshlarni tarbiyalashda esa yurtimiz har bir pedagogining o'z kasbiga bo'lgan ma'suliyati va bilimlari zarur bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida o'qituvchilarning o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga ta'sirini yuqori baholab shunday degan edi: "Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu hamqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebeho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bir buyuk zot – o'qituvchi murabbiylarining olijanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz.

Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini o'zimizda

yaxshi tasavvur qilamiz<sup>4</sup>”.

Bugun ta’lim-tarbiya jarayoniga alohida maqsad qo’yilgan. Bu o’quvchilarga ijodiy jihatdan o’z-o’zlarini namayon qilishlari uchun imkoniyat yaratish va ularda ijobiy-shaxsiy sifatlarning shakllanishiga ko’maklashishdan iborat. Shu boisdan ham, bugungi kunda o’quvchilarning faolligini oshirish, bilimlarini yaxshilash maqsadida ta’lim samaradorligini oshiruvchi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy ta’lim ravnaqini ta’lim tarbiya amaliyotida samarali va tejamli, yangi shakl, vositalarni qo’llash, izlanish orqali yuqori natijalarga erishishni ko’zlovchi pedagogik texnologiyalar ta’minlaydi.

Nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyaning nazariy asosini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati tug’ildi? «Pedagogik texnologiya» nimani anglatadi?

Pedagogik texnologiyalar ta’lim-tarbiya jarayonini ilg’or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o’qituvchi tomonidan yaratiladi, ta’lim-tarbiya bosqichlarini o’zaro bog’lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta’lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o’quvchida shakllantirish ko’zda tutilgan ma’naviy sifatlarni o’zlashtirishga yo’naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o’z ichiga oladi.

Ta’limning barcha bo’g’inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o’rgatsin. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o’quvchilarni qiziqtirib o’qitish va bilimlarni to’liq o’zlashtirishga erishishdir. Ta’limda berilayotgan bilimlarni o’quvchilarning ko’pchilik qismi puxta o’zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya ta’lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga,

---

4. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat. 2008-y. 130-bet

mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va muminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi

Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi.

Pedagogik texnologiya mohiyat-e'tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir. Biroq pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyati – tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir.

Pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash avvalo, pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirishni talab etadi, chunki ularni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-qarshi bo'lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlik, ta'lim oluvchilar shaxsini hurmat qilish va e'zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod bilan shug'ullanishi va o'zini o'zi rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratadi. Mazkur jarayonda talaba o'z o'quv faoliyatining subyekti sanaladi va pedagog bilan hamkorlikda

yagona ta'lim jarayonining subyekti - ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etadi.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

An'anaviy o'qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va o'g'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli "axborotli o'qitish" sifatida tafsiflanadi, chunki o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta'kidlagan holda baxolanmoqda.

Birinchidan, pedagogik texnologiya ta'lim (tarbiya) jarayoni uchun loyihalalanadi. Binobarin har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniqlab beradi va shunga mos holda ma'lum pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya mazmunini umumiy holda belgilab beradi. «Maqsad» esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o'z navbatida yangilash zarurligini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, ilmiy texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ko'payib, fan va texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib borayotganligi va o'qitish imkoniyatlari katta bo'lgan yangi texnologiyalarning ta'lim sohasiga kirib kelayotganligi, o'qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talablari ta'lim tizimiga yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan va unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli vositalar mavjudki ular yangi pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylantirdi.

Uchinchidan, sanoat va boshqa texnologiyalarning auditoriyaga uzluksiz kirib kelishi va jonli o'quv ob'ektlariga aylanishi o'qituvchining an'anaviy metodika doirasidan chiqib ketishiga va tabiiy ravishda, texnologik yondashuvlarni qo'llashga ehtiyojni tug'dirmoqda.

Bugunning har bir pedagogi har tomonlama rivojlangan, yetuk, barkamol avlodni tarbiyalab, davlatimizga munosib mutaxassis yetkazishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yadi. Shunday ekan, u pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil etish va ta'lim sifati, samaradorligini oshirishda o'z hissasini qo'shish zimmasidagi asosiy vazifalardan biri ekanligini unutmasligi lozim.

**"Texnologiya"** tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan texnos- san`at, hunar va logos-fan, ta`limot so'zlaridan tashkil topib, "hunar fani " ma`nosini anglatadi. Biroq bu ifoda texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi, texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon, bu – mehnat qurollari bilan mehnat ob`ektlari (xom ashyo) ga bosqichma- bosqich ta`sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi-mashina) ning faoliyatidir. «Pedagogik texnologiya» so'z birikmasi asosida «texnologiya», «texnologik jarayon» tushunchalari yotadi. Ushbu tushunchalar orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat, ta'limda esa fan bo'yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi. Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratish, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak.

Texnologiya deganda sub'ekt tomonidan kiritilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jaraen tushuniladi. Texnologiya g'ar doim zaruriyat vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan maqsadni amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Texnologiya – zamonaviy ilmiy-amaliy tafakkur mahsuli degan xulosaga kelish mumkin. U faoliyatni tubdan takomillashtirishga, uning natijaviyligini, tezkorligini, texnikaviy qurollanganligini oshirishga oid amaliy tadqiqotlar yo'nalishini aks ettiradi.

Shunday qilib, “texnologiya” deganda insonning aniq, murakkab jarayonni ketma-ketli o’zaro bogliq muallaja va amallar tizimiga taqsimlash yo’li bilan kafolatli natijaga erishish maqsadida amalga oshiriladigan usullar tushuniladi.

Texnologiya (jarayon sifatida) uchta qoida bilan tavsiflanadi:

- jarayonni o’zaro bog’liq bosqichlarga taqsimlash;
- izlanayotgan natijaga (belgilangan maqsad) erishishga qaratilgan harakatlarni izchil va bosqichma-bosqich bajarish;
- qo’yilgan maqsadga mos natijaga erishishning zaruriy sharti hisoblangan texnologik muallaja va amallarni bajarishning alohida ahamiyat kasb etishi.

Hozirgi kunda jahon miqiyosida ishlab chiqarilgan va foydalanilgan texnologiyalarni ikki turga bo’lish mumkin: sanoat va ijtimoiy texnologiyalardir. Ijtimoiy texnologiyalar har qanday sharoitga moslasha oladi.

Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta’lim jarayonida o’qituvchi faoliyati va o’quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta’limni tashkil etishning aniq taxnologiyasi ko’rsatiladi.

Ishlab chiqarishda texnologiya so’zidan kelib chiqadigan quyidagi tushunchalar ishlatiladi:

**Texnologik jarayon**- ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig’indisi.

**Texnologik operatsiya** - ishchi tomonidan o’zining ish joyida bajariladigan, yakuniga yetkazilgan harakat ko’rinishidagi jarayonning bir qismi.

**Texnologik xarita**- ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.

**Texnologik rejim** - texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo’lib, ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqti, shartlarini belgilaydi.

Ana shu ta`rif va tushunchalarni o`quv jarayoniga ko`chirsak quyidagi xulosaga kelish mumkin:

**Pedagogik texnologiya** - bu o`qituvchining o`quvchilarga o`qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta`sir ko`rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya - o`quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Pedagogik nashrlarda «o`qitish texnologiyasi», «ta`lim texnologiyasi» tushunchalari ham ishlatiladi

Pedagogik texnologiya inson ongi, tafakkuri bilan bog`liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushuntirish mumkin bo`lmagan pedagogik jarayonni ifoda etadi. Uning o`ziga xos jihati – tarbiya muammosini ham qamrab olishidir. Demak, texnologiya samaradorligi inson o`zining ko`p qirrali tomonlari bilan unda qanchalik to`liq namoyon bo`lyapti, uning psixologik-kasbiy jihatlari, ularning kelajakda rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga olinyapti, degan savollarning yechimiga bog`liq ekan. Shu jihatdan olganda texnologiya shaxsning rivojlanish bosqichlarini loyihalashtirish, tashxislash kabi imkoniyatlarga ham ega bo`ladi. Bu esa pedagogning texnologik jarayon bilan ishlash qobiliyatiga bog`liq.


Ta`lim tizimiga yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kun ta`limi oldiga qo`yilgan muhim vazifalardandir.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta`lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o`quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o`quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o`zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko`nikma va malakalarini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiya mohiyat jihatdan boshqa texnologiyalar bir safda turadi, chunki ular kabi boshqalari ham o`z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga ega, ma`lum “material“ bilan ish ko`radi. Biroq Pedagogik Texnologiyalar inson ongi bilan bog`liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va

hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish, biologik xatto axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos tomonlari –tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganliklaridir. Pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini, oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Pedagogik texnologiya asosida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug'iladi va u o'qituvchining yaqin ko'makdoshiga aylanadi yoki uning funksiyalarini to'liq bajarishi mumkin. Natijada, mantiqiy bog'langan qisqa yo'llardan shunday olib boriladiki, oqibatda o'quvchilar deyarli xato qilmaydilar va o'quvchi ularning natijasini ma'lum qilish bilan mustahkamlash imkoniyatini yaratadi hamda ta'lim maqsadini to'la amalga oshirish sari yana yangi qadamlar qo'yiladi.

**Pedagogik texnologiyaning tuzilmasini quyidagi ko'rinishda tasvirlash mumkin:**



1-rasm. O'qitish texnologiyasi tuzilmasi.

Hozirgi davr ta'lim nazariyasida pedagogik texnologiya tushunchasiga keng urg'u berilmoqda. Pedagogik texnologiyaning mazmuni o'qituvchi tomonidan o'quvchiga aqliy, ruhiy, axloqiy jihatdan turli usulda ta'sir o'tkazishdan iboratdir

O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o'tmishda ko'plab alloma-yu donishmandlar etishib chiqishiga asos bo'lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega.

Ajdodlarimiz bilim o'rgatuvchi ustoz faoliyatiga katta ahamiyat berganlar. Bu pedagogik faoliyatga bo'lgan asosiy talablardan biri edi. Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy aqlli, dono va o'tkir fikrlaydigan kishilar to'g'risida shunday deydi: «Aqlli deb shunday kishiga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo'r istidodga ega; yomon ishlardan o'zini chetda olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar<sup>5</sup>». Uning fikricha, «Ta'lim so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o'rganishdir, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo'lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo'lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladilar<sup>6</sup>».

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektiv xususiyatga ega, ya'ni, har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;

---

5. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. nashriyoti, 1993. 182-b.

6. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. nashriyoti, 1993. . 184-185-b.

- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;

- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;

- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;

- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik goyalarining ustuvorligiga

O'qituvchining faoliyati mezonlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- maqsadning aniqligi va uni tashxis etish mumkinligi;

- o'rganilayotgan mavzuga oid nazariy va amaliy masalalar va uni yechish usulining tizimli tarzda taqdim etilishi;

- mavzularning kema-ketligi, mantiqiyligi, bosqichma-bosqich bayon etilishi;

- o'quv jarayonining har bir bosqichida ishtirokchilarning o'zaro harakat usullarining ko'rsatilishi;

- o'qituvchining eng samarali o'qitish vositalaridan foydalanishi;

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonlari, ta'lim usuli, vositalari, shakllari, o'qituvchi va tahsil oluvchi o'rtasidagi munosabatlar majmui bo'lib, ta'lim jarayoniga tizimli, texnologik yondashuvni talab qiladi va o'zida ta'lim maqsadlarini oydinlashtirishni, natijasini kafolatlashni va ob'ektiv baholashdek muhim belgilarni aks ettiradi .

Pedagogik texnologiyaning fan sifatidagi vazifalarini o'qitishning har bir bosqichida ta'limning mazmunini belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, predmetning mazmuniga kiritish uchun vaziyatli matnlar, testlar tayyorlash, shaxsda shakllantirish nazarda tutilgan kasbiy sifatlar va ma'naviy fazilatlarni o'zlashtirishga yunaltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash ularni ob'ektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi.

Pedagogik texnologiya fan sifatida ham, shuningdek, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan prinsiplar, yo'l va usullar sifatida ham shakllanib kelmoqda.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va umuminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi.

O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o'tmishda ko'plab alloma-yu donishmandlar etishib chiqishiga asos bo'lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega.

Pedagogik texnologiyani pedagog olimlar turlicha ta'riflashadi.

T.S.Nazarova ta'rificha: «Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'quv jarayonida qo'llaniladigan usullar, vositalar majmuidir»<sup>7</sup>

Nufuzli YUNESKO tashkiloti ma'qullagan ta'rif bo'yicha «Pedagogik texnologiya - ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir»<sup>8</sup>

“Pedagogik texnologiya” tushunchasining tarixiy shakllanishi va rivojlanishida turlicha yondashishlar mavjudligini pedagogika fanlari doktori professor Nurali Saidaxmedov ushbu sohaning etakchi mutaxassisi sifatida muammoni yoritayotgan olimlarning g'oyalarini fikrli ravishda 3 guruhga ajratib, quyidagicha izohlaydi:

-ba'zi olimlar masalaga “pedagogikadagi zamonaviy yo'nalish” deb an'anaviy yondashadilar va o'z imkoniyatlari doirasidagi muammoga ilk bor qo'l uradilar (X.Abdukarimov, K.Zaripov, T. Nazarov, U.Nishonaliev);

---

<sup>7</sup> Nazarova T.S. Pedagogicheskaya texnologiya: noviy etap evolyusii.- T., 1999, 16 b

<sup>8</sup> Farberman B.L. Progressivnie pedagogicheskie texnologii.-T.,1999, st.3.

-boshqa guruh tarafdorlari ta'limning bugungi ahvoriga qayg'uradilar va uni inqirozdan qutqaruvchi kuch, texnologiyalashtirish deb qaraydilar.(I.Ya.Lerner, F.Fradkin, Dj. Bruner, T.Sakamota);

-uchinchi guruh olimlari texnollashtirishni ob'ektiv jarayon deb yangicha sifatli muammolarni echish uchun ta'limning evolyutsion bosqichga ko'tarilish shartlaridan biri ekanligini e'tirof etadilar.(V.P.Bespalko, M.V.Klarin, M.Klark, T.A.Ilina).

Ko'rib chiqilgan barcha yo'nalishdagi qarashlarda an'anaviy pedagogik texnologiyadan ma'lum darajada chekinish va pedagogik texnologiyaga texnik rivojlanish taraqqiyoti nuqtai nazaridan qarash g'oyasi mavjudligi seziladi. Shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalarga shaxsni rivojlantirish jarayoni shaxsga yunaltirilgan ta'lim deb qarash mujassamlashgan.Zero, mustaqillik va demokratik rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatimizning bosh vazifasi ham ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdan iboratdir. Ma'lumki, o'quv jarayoni texnologik tayyorgarlikning asosi hisoblanib barcha operatsiyalar, o'qitish jarayoni orqali amalga oshiriladi.

O'zbekistonlik olim N.Sayidaxmedov fikricha: «Pedagogik texnologiya- bu o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir». <sup>9</sup>

Yirik pedagog olimlarimizdan biri M.Ochilov pedagogik texnologiya sohasidagi tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosaga keladi: «Pedagogik texnologiya-tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob'ektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirib, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir». <sup>10</sup> U pedagogik texnologiyaga ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari,

---

<sup>9</sup> Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati. «Xalq ta'limi», 1999 y, 1-son, 98- bet.

<sup>10</sup> Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar.o'quv qo'llanma. Qarshi, «Nasaf», 2000 y, 13-bet.

vositalari, shakl va metodlari majmui deb qaraydi. «Pedagogik texnologiya ta`lim-tarbiyaning ob`ektiv qonuniyatlari, diagnostik maqsadlar asosida o`quv jarayonlari, ta`lim-tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir», -deb ta`rif beradi.

Ko`rib turganimizdek, «pedagogik texnologiya» tushunchasini ta`riflashda hali yagona fikrga kelinganicha yo`q.

Pedagogik texnologiya – ta`lim-tarbiya jarayonlari, ta`lim usuli, vositalari, shakllari, o`qituvchi va tahsil oluvchi o`rtasidagi munosabatlar majmui bo`lib, ta`lim jarayoniga tizimli, texnologik yondashuvni talab qiladi va o`zida ta`lim maqsadlarini oydinlashtirishni, natijasini kafolatlashni va ob`ektiv baholashdek muhim belgilarni aks ettiradi .

## **I.2. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va metodologik asoslari.**

Jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiy etib, iqtisodiy va siyosiy mavqeyi kundan-kunga ortib bomoqda. Buni esa ijtimoiy soha va ayniqsa ta'lim-tarbiyaga asoslanganlikda deyish mumkin. Ta'lim tarbiya sohasida aniq maqsad va vazifalar, uni amalga oshirish dasturlari ishlab chiqilganligi, pedagogikaning bosh maqsadi ham yetuk, yuksak malakali, ma'naviyatli, ma'rifatli yosh avlodni tarbiyalash ekanligidandir. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning ikkinchi bosqichida «o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlashning muhimligi» alohida qayd qilingan. Shuning uchun ham mamlakatimizning ta'lim muassasalarida pedagogik texnologiyaga qiziqish ortib unga turlicha qarashlar, va bu tushunchani o'ziga xos talqin qilishlar, shuningdek, pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga joriy etishga ham turlicha yondashuvlar sodir bo'lmoqda. Ushbu bo'limda o'tgan asrning 60-yillarida AQSh (B. Blum, D. Kratvol, N. Gronland, J. Kerrol) da yaratilgan va jahondagi 30 ga yaqin mamlakatlar ta'lim tizimida muvaffaqiyatli qo'llanib kelinayotgan pedagogik texnologiyaning mohiyati, uning nazariy asoslari, o'ziga xos xususiyatlari hamda bu texnologiyaning mamlakatimiz ta'lim tizimiga joriy etishning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Zero, o'qitishga texnologik yondashuvning o'zbek xalq pedagogikasi g'oyalari bilan uyg'unlashtirib o'quv jarayoniga tadbiiq etish, kadrlar tayyorlash sifatini jahon ta'lim standartlariga muvofiqlashtirishda alohida o'rin tutishi muqarrardir.

Milliy mustaqillik qo'lga kiritilishi bilan istiqbol yo'li belgilab olindi. Ta'lim-tarbiya sohasida aniq maqsad va vazifalar, uni amalga oshirish dasturlari ishlab chiqildi. Davlatimiz rahbari I. Karimov barkamol avlodni voyaga etkazish borasidagi bir qator nutqlari va asarlarida bu davlat siyosatida ustivor masala ekanligini bir necha bor ta'kidlab o'tdi. Bobokalonlarimizning azaliy orzulari, milliy va umumbashariy qadriyatlar, ma'naviy qadriyatlarlar zamonaviy pedagogikaning maqsadi va vazifalarini shakllanishiga asos bo'lmoqda. Davlatimiz tomonidan qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ushbu maqsad ko'rsatilgan. Zero,

zamonaviy pedagogikaning bosh maqsadi ham etuk, yuksak malakali, ma'naviyatli, mirrifatli, mustaqil fikr yurita oluvchi, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iboratdir.

Ko'zlangan maqsadga erishish uchun uzluksiz ta'lim tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Ta'lim jarayoniga tabaqalashtirilgan yondashuv, o'quvchilarni turli kasb-hunar kollejlari, akademik lettsilarda tahsil olishlarini ta'minlash zamonaviy pedagogika fani oldiga yuksak vazifalarni qo'ymoqda. Masalan, ushbu o'quv muassasalari uchun davlat ta'lim standartiga muvofiq keluvchi o'quv dasturlari va darsliklar, o'quv qo'llanmalarini yaratish bugungi kun talablariga javob bermog'i lozim.

Pedagogikaga oid adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi davrda pedgogik texnologiya tushunchasi ta'lim amaliyoti v nazariyasi ilmidan mustahkam o'rin egalladi, lekin uni pedagogikaning mukammal lug'atlaridagi o'rni hali no'maluligicha qolib ketmoqda.

Pedagogik texnologiya tushunchsinining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud bo'lgan: u texnik vositalar haqidagi ta'limot deb, hamda o'qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin etilgan.

Pedagogik texnologiyalarning tom ma'nosini bilish va uning hududimizga mos turini yaratish uchun majmualar nazariyasini to'la anglab olishi zarur.

Chunki pedagogik texnologiya majmular nazariyasining qonuniyatlariga 160 foiz suyangan bo'lib, yangicha falsafiy tafakkurni, yangicha dunyoqarashni ifoda etadi.

Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitlarga ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy hodisa, deb ta'riflash mumkin. Ta'riflar nazariyasi bo'yicha bunday ijtimoiy hodisani pedagogik texnologiya desa bo'ladi.

Ta'limni texnologiyalashtirishning asosini, ta'lim jarayonini, uning samaradorligini oshirish va ta'lim oluvchilarni, berilgan sharoitlarda va belgilangan

vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o'quv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish g'oyasi tashkil etadi.

Pedagogik texnologiya yordamida 3- ming yillikda O'zbekiston ta'lim-tarbiya tizimida ham tub o'zgarishlar yuz berishi, o'qituvchi- o'quvchi faoliyati yangilanishi, yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantirilishi

Arastu o'z vaqtida aytganidek, har doim va har joyda ezgulikka erishish ikki shartning bajarilishiga:

- Har qanday faoliyat yakunidagi maqsadni to'g'ri belgilash:
- Pirovard maqsadga erishish chora-tadbirlarni izlab topishga bog'liqdir.

Ilmiy tilda buni faoliyatning metodologik asosini aniqlash va maqsadga etishish usul va uslublarni to'g'ri belgilash deyiladi<sup>1</sup>

Pedagogik texnologiyaga adabiyotlarda har xil ta'riflar mavjud. Bu ta'riflar har bir muallifning pedagogik texnologiyaga o'ziga xos yondashuvi asosida vujudga kelmoqda.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga etkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Respublikamizning pedagogik olim va amaliyotchilar ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar.

Bu erda, nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyalarni ilmiy nazariy asosini yaratish va amaliyotga tadbiiq etish zaruriyati tug'ildi degan savol paydo bo'lishi mumkin. Jamiyatimizga qanchadan qancha bilimli kadrlarni va yuqori malakali olimlarni etishtirib kelgan pedagogika uslublari mavjudku, ularning eskirib,

talabga javob bermay qolgan va mafkuralashtirilgan joylarni o'zgartirib, milliy tus berib, foydalanaversa bo'lmaydimi?- degan mulohazalar ham yo'q emas. O'zbekistonning shu kundagi pedagogik jamoatchilikning aksariyati, aynan mana shu yshldan bormoqda. Bu yo'l ilojisizlikdan izlab topilgan bo'lib, qisqa muddat xizmat qilishi mumkin. Mustaqillikni qo'lga kiritgan va buyuk kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo'l uzoq xizmat qila olmaydi. Chunki:

Birinchi: ma'lum sabablarga ko'ra jahon hamjamiyati taraqqiyotdan ortda qolib ketgan jamiyatimiz, taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun, aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg'or pedagogik tadbirlaridan foydalanish zarurligi:

Ikkinchi: an'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli "Axborotli o'qitish" sifatida tavsiflanib, o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi:

Uchinchi: Fan-texnika taraqqiyotininig o'rta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi:

To'rtinchi: kishilik jamiyati o'z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi:

Beshinchi: yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan ob'ektiv borliqqa yondoshuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidadir.

Darhaqiqat, 20 asr kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixidan fan va texnika sohasida yuz berish inqiloblar davri sifatida joy oldi. Ilm-fan va texnika rivojining yuksak sur'ati moddiy ishlab chiqarish jarayoni nazariy (g'oyaviy) hamda amaliy jihatdan boyitib borish bilan birga ijtimoiy munosabatlarni yangicha mazmun kasb etishini ta'minlaydi. Xizmat ko'rsatish sohalarining paydo bo'lishi, yangicha turmush tarzi kishilarni moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining ortib borishiga zamin hozirladi. Ijtimoiy ehtiyojlarininig yangilanib hamda ortib borishi o'z navbatida ularni qisqa

muddat va sifatli qondirilishini ta'min etuvchi faoliyatning yo'lga qo'yilishini taqozo etadi. Ijtimoiy zarurat mahsuli bo'lgan texnologiya sohasi va uning takomillashib borishi qisqa vaqt oralig'ida, kam jismoniy kuch sarflagan holda yuksak sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini beradi. Moddiy ishlab chiqarish, xom-ashyoni qayta ishlash sohalari (qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, maishiy xizmat ko'rsatish va boshqalar) da mahsulot ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish nisbatan texnologik yondashuv an'anasi yuzaga keladi. Texnologik yondashuv ishlab chiqarish jarayonining umumiy tavsifini yuritishga xizmat qiladi. Muayyan mahsulotni ishlab chiqarish maqsadida xom-ashyoni tanlash (dastlabki bosqich) dan mahsulotni iste'molchiga etkazib berishgacha bo'lgan (so'nggi bosqich) davrini o'z ichiga olgan jarayon texnologik jarayon sifatida e'tirof etiladi. Ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan texnologik yondashuv muayyan sohalarda islohatlarni tashkil etish ularni muvaffaqiyatini ta'minlash, erishilgan yutuqlarni boyitib borish kabi maqsadlarga erishishning samarali omili sifatida namoyon bo'ladi.

Moddiy ishlab chiqarish sohalariga zamonaviy ilg'or yuksak texnologiyani tadbiq etilishi bir qator shartlar asosida kechadi, xususan ilm-fan hamda texnikaning so'ngi yutuqlariga tayanish, yirik moliyaning mablag'lar va yuksak darajadagi kasbdagi kasbiy mahoratga ega malakali mutaxasislarning mavjudligi bu boradagi yutuqlarning kafolatlaydi.

Moddiy ishlab chiqarish sohalarida ilg'or texnologiyalarni qo'llash shartlaridan biri-malakali mutaxasislarni tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirib borishga erishish ekanligidan ham anglanadiki, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot bir-biri bilan uzviylik, aloqadorlik hamda yaxlitlik tamoyili asosida rivojlanib boradi. Jamiyat ijtimoiy hayotida etakchi o'rin tutgan g'oya va qarashlar iqtisodiy ishlab chiqarish rivojida o'z ta'sirini o'tkazsa, o'z navbatida, iqtisodiy o'sish aholining madaniy turmush tarzini yaxshilanshiga olib keladi.

Insonga sivilizatssiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berishga yo'naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bugungi kunga kelib talim jarayoni tashkil etishga nisbatan o'ta qat'iy hamda

murakkab talablar qo'yilmoqda. Chunonchi murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini to'laqonli anglash imkoniyatiga ega, favqulotda ro'y beruvchi vazifalarda ham yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal eta oluvchi malakali mutaxassisni tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj talim jarayonini texnologik yondoshuv asosida tashkil etishni taqozo etmoqda.

Shu bois ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanib borayotgan pedagogika faninig vazifalari doirasi kengayib bormoqda. Tabiiy ravishda zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan samarali va unumli foydalana olish vazifasi mazkur fan oldiga ham qo'yilgandir.

Ayni vaqtda Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko'lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, hulasalash hamda o'quvchiga etkaza berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

“Pedagogik texnologiyalar”ning metodologik asoslari.

Insonning boshqa mavjudotlardan farqi oldiga ma'lum bir maqsad qo'yib, so'ng unga tomon harakat qilishidadir. Kishi maqsad sari qiladigan harakati (faoliyati) jarayonida muayyan tabiiy va sun'iy to'siqlarni engib o'tadi. Bu to'siqlarni engib o'tish uchun u bir qator tadbii va choralardan foydalanadi.

Maqsadga etishda muayyan to'siqni engib o'tish uchun qo'llaniladigan tadbii va choralar majmuini usul deyiladi.

Maqsadga etishda bir necha goho o'nlab – yuzlab to'siqlarni engishga to'g'ri keladi. Bu to'siqlarni engish uchun tegishli usullar tegishli ma'lum bir tizimda qo'llaniladi.

Maqsadga etishda qo'llaniladigan usullar tizimini uslub (yo'l) deyiladi.

Usullarni ma'lum bir uslubda qo'llanish jarayonida har bir harakat maqomi muayyan maqsad ko'rsatkichlariga bo'ysundiriladi. Undan tashqari, kishi maqsadga etish jarayonida bir qator qonuniyatlarga ham tamoyil sifatida amal qiladi.

Kishi maqsad sari qilgan harakatida uning uchun tamoyil vazifasini bajaruvchi maqsad ko'rsatkichlari bilan harakati davomida amal qilinishi shart bo'lgan qonuniyatlar majmuiga metodologiya deyiladi.

Har bir shaxsni, ijtimoiy guruhni va butun jamiyatni eng umumiy, umumiy va xususiy maqsadlari bo'ladi, inchunkun ularning eng umumiy, umumiy va xususiy metodologik asoslari mavjud.

Jamiyat oldiga qo'ygan umumiy maqsad ko'rsatkichlari falsafaning umumiy qonuniyatlari hamma uchun eng umumiy metodologik asosdir.

Har bir sohada mavjud maqsad ko'rsatkichlari bilan faqat shu sohada hukm suruvchi qonuniyatlar shu sohada faoliyat ko'rsatuvchilar uchun umumiy metodologik asos hisoblanadi.

Muayyan faoliyatning eng umumiy, umumiy maqsad ko'rsatkichlari va qonuniyatlari bilan birga shu faoliyatning ichida qisqa muddatli maqsad ko'rsatkichlari va tarmoq qonuniyatlari ham bo'ladi. Ularga amal qilish xususiy metodologiya deyiladi.

Odamlar faoliyat ko'rsatish jarayonida o'z ishlarini eng umumiy, umumiy va xususiy metodologiyalardan birday kelib chiqqan holda amalga oshiradilar. Aks holda qilgan harakatlari zoe ketadi.

Usul, uslub va metodologiya tushunchalariga umumfalsafiy ta'rif berib chiqqanimizdan so'ng ularning o'quv jarayonida ishlatilishini ko'rib chiqamiz.

Insonning boshqa mavjudotlardan farqi-uning o'z oldiga maqsad qo'yib, maqsad sari harakat qilishidir, deb ta'kidladik.

Tabiiy savol tug'iladiki, bu maqsadlar qayoqdan paydo bo'ladi? Javob: har qanday maqsad alohida bir shaxs, ijtimoiy guruh yoki millatning ehtiyojidan kelib chiqadi.

Inson bioijtimoiy mavjudot bo'lganligidan uning biologik ehtiyoji barobarida ijtimoiy ehtiyoji ham mavjud.

Biologik ehtiyojlar kishining biologik tabiatidan kelib chiqadi. Tirik mavjudot sifatida hayotni saqlab qolish uchun talab etiladigan zaruriy ehtiyoj

biologik ehtiyoj deyiladi. Bularga eb-ichish, nafas olish, xavf-xatardan saqlanish, nasl qoldirish kabilar kiradi.

Ijtimoiy ehtiyojga kishining ijtimoiy taraqqiyoti natijasida vujudga keladigan fikr yuritish, fikr almashish, bilim olish, mehnat qilish, zavqlanish sevish va sevilish kabi ehtiyojlar kiradi.

Ehtiyojni qondirish ustida ma'lum vaqt fikr-mulohaza yuritilgandan keyin ehtiyoj yoki inkor qilinib bostiriladi, yoki unga etishish maqsad qilib qo'yiladi.

Maqsad va uning ko'rsatkichlari aniq bo'lgandan keyin, unga etishish usullari tizimi izlab topiladi va harakat boshlanadi. Shunda maqsad ko'rsatkichlari bilan harakat paytida o'z mavjudligini namoyon qiluvchi qonunlar yig'indisi ushbu faoliyatning metodologik asosini ya'ni amal qilinishi shart bo'lgan tamoyillar majmuini tashkil qiladi.

Har qanday jamiyatning eng umumiy maqsadi bo'ladi. Uni milliy g'oya deyiladi.

O'zbekiston Respublikasi xalqlarining asosiy maqsadi huquqiy demokratik davlat barpo etish hamda odil fuqorolik jamiyatini shakllantirishdir.

Bunday davlat va jamiyat sifatlarini ifoda etuvchi ko'rsatkichlar bo'ladi. Ular falsafaning eng umumiy qonuniyatlari bilan birgalikda jamiyat a'zolarining barcha faoliyatiga, shu jumladan, ta'lim-tarbiya sohasidagilarga ham, eng umumiy metodologik asos vazifasini bajaradi.

Kishi o'z faoliyatida eng umumiy tamoyillarga amal qilishi bilan birga muayyan bir sohaning umumiy maqsad va qonuniyatlariga tamoyil sifatida suyanadi, degan edik.

Pedagogik jarayonning umumiy metodologiyasi soha oldiga qo'ygan maqsad ko'rsatkichlari bilan didaktikaning umumiy tamoyillaridir.

Pedagogika sohasining umumiy maqsadi jamiyatning eng umumiy maqsadi, yani g'oyasidan kelib chiqib, ajralmas qismi hisoblanadi.

Maorif sohasining umumiy maqsadi huquqiy demokratik davlat hamda odil fuqarolik jamiyati talablariga javob beruvchi kishini tarbiyalab berishdan iboratdir.

O'zbekistonda mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erkin, ma'rifatli va demokratik davlat fuqarolari quyidagi ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishlari kerak: aqlli, mustaqil fikr yurita oladigan; odobli, millatimiz to'plagan barcha fazilatlarga ega; mehnatsevar, mehnat kishini ijtimoiy ehtiyojlariga aylanganligi; bilimli, diniy, dunyoviy va fazoviy bilimlarni ko'p va chuqur egallab olib, ularni hayotga qo'llay olishi;

jismoniy-sog'lom, ruhiy va ijtimoiy salomat; milliy g'ururga ega-ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy meroslarini egallab, ular bilan faxrlanuvchi va ularni boyitishga hissa qo'shuvchi; vatanparvar, vatan uchun xalq uchun fidokorona mehnat qiluvchi, ularni muxofaza qila oluvchi va zarur bo'lsa ular uchun jonini qurbon qiluvchi; baynalminal, o'z millati qatorida boshqa millatlarni hurmat qiluvchi; insonparvar inson zotiga faqat yaxshiliklar yo'llovchi va ular uchun ezgu ishlar qiluvchi; jasur va shijoatli - har bir ishiga mardona kirishib, uni shijoat bilan oxiriga etkazuvchi.

Bu o'nta ijtimoiy sifat jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan davlat buyurtmasi bo'lib, ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan har bir inson ulardan umumiy metodologik asos sifatida foydalanishi kerak. Bu umumsohaviy metodologiyaning birinchi qismi hisoblanadi.

Umumiy metodologiyaning ikkinchi qismini o'qituvchi (pedagog) larga yaxshi tanish bo'lgan didaktika tamoyillari tashkil qiladi.

Ularga: ta'lim-tarbiya jaryonida ta'lim oluvchi diqqatini berilayotgan bilimga qaratib, uni jarayon oxirigacha saqlab turish; har bir bilimni ilmiy asoslab berish; bilim berishda o'quvchi (talaba) ning imkoniyati va yosh xususiyatlaridan kelib chiqish; bilim berishda mumkin qadar ko'proq ko'rgazmali vositalardan foydalanish; bilim berishda muntazamlilik va davomiylikni saqlash; o'quv jarayonini mehnat jarayoni bilan qo'shib olib borish; ta'lim va tarbiyaning tizimli, izchil bo'lishi va uning birligi tamoyillari kiradi.

Har bir faoliyatning eng umumiy, umumiy metodologik asoslari bilan bir qatorda xususiy metodologiyasi ham mavjud. Bizning misolda, bu muayyan o'quv

predmeti, muayyan mavzu va muayyan darslarni o'tishga kutilgan maqsad ko'rsatkichlari bilan pedagogik texnologiyaning besh tamoyillari hisoblanadi.

Pedagogik jarayonda amal qilinishi shart bo'lgan uch turdagi metodologik asosni ko'rib chiqdik. O'quv jarayoni bilan shug'ullanuvchi har bir o'qituvchi (pedagog), tarbiyachi va boshqalar ushbu uch metodologik asosning hammasiga birday amal qilishi shart. Faqat shundagina ular kutilgan natijaga erishishi mumkin.

Pedagogik texnologiya quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- o'quv-tarbiyaviy jarayonda o'quv-texnik vositalari ob'ekt va usullaridan maqsadli foydalanishi;
- pedagogik jarayonda muloqot tizimini to'g'ri tashkil etish va pedagogik ma'lumotlarni taqdim etish;
- o'quvchilarning bilim olish jarayonini boshqarish tizimi (o'zlashtirish faoliyatidagi boshqaruv tizimi);
- belgilangan masalani echish maqsadida pedagogik jarayon uslub va vositalarini shakllantirish;
- o'qish va tarbiya jarayonini rejalashtirish;
- bir-biriga bog'liq g'oyalar tizimi, insonlar faoliyatini tashkil etish vositalari, ta'lim maqsadiga erishish resurslarni ichiga olgan yaxlit integrativ jarayon;
- pedagogik tizimni texnologik loyihalash.

Ta'lim jarayonini amalga oshirish va baholashni rejalashtirishda quyidagi mezonlarga tayaniladi:

1.Konseptuallik: har bir pedagogik texnologiya o'z tarkibida falsafiy, psixologik, didaktik, ijtimoiy pedagogik asosni qamrab olgan aniq ilmiy konsepsiyaga tayanishi lozim.

2.Tizimlilik: Pedagogik texnologiya hamma o'zaro bog'liq qismlardan iborat tizimning mantiqiy jarayoni belgilariga ega bo'lishi va yaxlit bo'lishi lozim. Pedagogik texnologiya o'quvchilarning rivojlanishi, ijodiy shug'ullanishining metod, vositalarini, tafakkur rivojini o'rganadi, qiyinchiliklarni engishga o'rgatadi.

O'quvchilarda o'quv materialini tushunishiga, muammoli izlanishning yangi shakllarini egallashlariga imkon beradi. Bilish izlanish jarayonini boshqarishni ta'minlaydi.

Jarayonning mazmun-mohiyati uning qismlarining uzviy bog'liqligi, yaxlitligidan iborat.

### 3.Samaradorlik.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar raqobatli shartlar asosida mavjud bo'lib, natijalar bo'yicha samara berishi, optimal harakatli bo'lishi va ta'limning ma'lum bir standartlarini kafolatlashi shart.

### 4.Qo'llanuvchanlik.

Pedagogik texnologiya bir xil ta'lim muassasalarida boshqa subektlar tomonidan ham qo'llanilish imkoniyatini beradi.

Pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslari.

har qanday umumpedagogik ta'lim texnologiyasi falsafiy asosga ega.

Biroq o'qitish metodi va vositalarida falsafiy asosni topish qiyin. Qo'ida g'oya nuqtai nazaridan bir-biriga zid bo'lgan texnologiyalarda ham bir xil metodlar qo'llanilishi mumkin. Shuning uchun ham texnologiyaning o'zi o'zgaruvchan bo'lib, u yoki boshqa falsafiy asosga moslashishi mumkin.

Pedagogik texnologiyani tushunish uchun asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak. Shu fikrni batafsil ko'rib chiqaylik.

Pedagog odatda o'z oldiga o'quvchilar uchun materialining mazmunini tushunib, o'zlashtirib olishsin, ma'lum bilimlarni egallab amaliyotda qo'llashga o'rgansin degan maqsadni qo'yadi. Lekin o'zlashtirish, tushunish, qo'llash nimani anglatadig'

Pedagog o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishganligini qanday biladi?

Pedagogik maqsadlarga erishganlik yoki erishmaganlikni bilishning aniq vositalari bo'lgandagina, pedagog o'zining mehnati samarali ekanligiga va tanlagan

uslublari maqsadga muvofiqligiga yoki, aksincha, samarasiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin. Odatdagi o'qitish uslubini tadqiq qilishda pedagogik texnologiya tarafdorlari aynan shu narsani nazarda tutishgan edi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy tushunchasi, o'quv jarayoniga majmui sifatida yondoshishdir. Bunda ta'lim tarbiyada ishtirok etuvchi barcha narsa va hodisalar o'zaro funksional bog'liqlikda, bir butunlikni, yangi pedagogik jarayon majmuni tashkil qiladi. Pedagogik jarayon majmuini muayyan bir vaqt mobaynida bosqichma-bosqich amalga oshirish pedagogik texnologiya deyiladi.

Pedagogik texnologiyaning an'anaviy uslublardan asosiy farqi uning to'la-to'kis majmular nazariyasi qonuniyatlaridan kelib chiqqanligidandir.

Pedagogik texnologiyaning avvalgi uslublaridan afzalligi, uning ta'lim jarayonini bir butunlikdan ko'rib, ta'lim maqsadi, uning mazmuni, bilim berish usullari va vositalari hamda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilarni majmuga keltirib ta'lim bosqichlarini loyig'alab ta'lim jaraenini nazorat qilish va ta'lim natijalarini bag'olash kabi qismlarini o'zaro uzviy bog'lab majmuga keltirib turib, uning loyig'asini tuzishdadir.

Uning an'anaviy uslublaridan yana bir farqi, u talabalarning o'zlaricha berilgan bilimni edlab olib aytib berishga emas, balki ta'lim va tarbiya jaraenining yakunida amaliy ishlarni bajarishiga yo'naltirilganligidadir va uning yordamida o'quv jarayoni tashkil etilganda dars natijasi bilim beruvchining pedagogik mahoratiga bog'liq emasligidadir. Ilmiy asoslanib, yaxshi loyihalashtirilgan pedagogik texnologiya bo'yicha har qanday o'qituvchi ham a'lo bo'lmasada yaxshi dars o'tadi. Chunki pedagogik texnologiyani pedagogik olim, metodist yoki ilg'or tajribali o'qituvchilar tuzadi, shu bois ularning pedagogik mahorati pedagogik jarayon loyihasida o'z ifodasini topgan bo'ladi. Avvalgidek, «darsdan ko'zlangan maqsadga ob'ektiv sabablarga binoan etib bo'lmaydi» yoki «kutilmagan omillarga binoan dars buziladi» va shunga o'xshash gaplarga pedagogik texnologiyadan o'rin yo'q.

Pedaogik texnologiyaning yuqorida qayd etilgan xususiyatlardan va majmular nazariyasining qonuniyatlaridan kelib chiqib, unga quyidagi kengaytirilgan ta'rifni

beramiz. Pedagogik texnologiya, bu – jamiyat eg'itijidan kelib chiqib, oldindan belgilangan kishi ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jaraenini majmui sifatida ko'rib, uni tashkil qiluvchi qismlari bo'lgan o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari erdamida o'quvchi talabalarga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikdan ko'rsatgan ta'sirini nazarda tutuvchi va ta'lim natijasini bag'olab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbirdir.

Pedagogik texnologiyaning avvalgi uslublardan afzalligi, u ta'lim jaraenini, birbutunlikda ko'rib, ta'lim maqsadi, uning mazmunini, bilim berish usullari va vositalari g'amda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilarni majmuga keltirib, ta'lim bosqichlarini loyig'alab, ta'lim jaraenini nazorat qilish va ta'lim natijalarini bag'olash kabi qismlarini o'zaro uzviy bog'lab majmuga keltirib turib, uning loyahasini tuzilishidir.

Pedagogik texnologiyaning ta'lim sohasidagi mexanizmlari quyidagilardir:

- ta'lim muassasalarida ijodiy muhit yaratish, ilmiy pedagogik xodimlar orasida tashabbuskorlik va yangilikka bo'lgan qiziqishni oshirish;
- ta'lim sohasidagi ijodkorlikni, yangiliklarni qabul qilish va keng yoyish uchun ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarni yaratish;
- izlanuvchanlik faoliyatini rag'batlantirish, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishga solish;
- nisbatan istiqbolli yangiliklarni, samarali loyihalarni amalda harakatdagi ta'lim tizimiga joriy etish, to'plangan yangilik va tajribalarni doimiy harakatdagi umumta'lim tizimi rejimiga singdirish.

Shu bois mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish va uni hozirgi zamon talablariga moslashtirish, zamonaviy informatsion texnologiyalarga asoslangan jahon andozalari darajasidagi tizimini yaratish umumdavlat siyosatining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanmoqda. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da uzluksiz ta'lim tizimini isloh etish asosida, jamiyatning rivojlanishi talablarini hisobga olgan holda, etuk mutaxassislarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash masalalariga katta e'tibor berilgan. Bu vazifalarni hal qilish uchun esa birinchi navbatda, o'quv jarayonini tubdan isloh qilish, unga

jahonning rivojlangan davlatlarida keng qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni izchillik bilan tatbiq etish zarur.

Jamiyatnin har bir faol fuqarosi XXI asr bo'sag'asida turar ekan, o'tgan yillarni baholashga va kelajak hayotining turli qirralarini belgilab olishga urinishlari tabiiydir. Ta'lim sohasida ham bunday ishlar amalga oshirilmoqda. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot nafaqat ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlariga, balki madaniy sohasiga, ijtimoiy-gumanitar bilimlar doirasiga ham yangi texnologiyalarni joriy etishni taqazo etmoqda. Shu boisdan bugugi kunning dolzarb masalalardan biri pedagogik texnologiya hisoblanadi.

Ta'lim-insonlar faolligini belgilaydigan muhim bir tarmoqqa aylanmoqda. Shuning uchun ta'lim tizimida inson faoliyati bilan bog'liq ko'pgina muammolarni hal etish zarur. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, bu vazifalarni ilmiy-texnik jarayonning o'zgarishi bilan bog'liq holda ta'lim nazariyasini yaratish, ya'ni fanni jamiyatning faol, samarali ishlab chiqarish kuchiga aylantirish orqali amalga oshirish mumkin.

Pedagogik texnologiyaning ta'limdagi amaliylik hamda tashkiliy-uslubiy imkoniyatlarini amalga oshirishga yunaltirilganligi, uning aniq vositalar yordamida hayotga tadbiq etilishi butun jahon pedagoglarining unga e'tiborini kuchaytirmoqda. Bu yunalishga turlicha qarashlar mavjud, ba'zi pedagoglar pedagogik texnologiyada ta'limni tabaqalashtirish vositasini ko'rmoqdalar, boshqalarini kam mehnat sarflab yo'qori natijalarga erishish imkoniyatlari, pedagogik texnologiyada barcha ta'lim oluvchilarni oldindan belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasiga etkazish mumkinligi qiziqtirmoqda.

## **2-BOB. O'QISH DARSLARINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI.**

### **2.1. O'qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning shakllari.**

Yurtimizda ta'lim mazmuniga alohida e'tibor qaratilib, DTS o'quv dasturlarining yangi tahrirdagi variantlari tajriba sinovdan o'tkazilmoqda, pedagogik texnologiyalar asosida o'quv jarayonining samaradorligi oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan, axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. O'qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko'pgina metodlaridan foydalaniladi.

Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi.

Bu davrda bolaning zihnini o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan xarakterlanadi.

Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallash-tiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini, o'qish motivlarini rivojlan-tiradi. O'qish motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi.

Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali borishiga o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o'quvchilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi.

Didaktik o'yinlar nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki ta'limning keyingi bosqichlarida ham o'quvchilarning bilimga bo'tgan ishtiyoqlari rivojiga katta turtki bo'tishi mumkin. Ayniqsa qiyin o'zlashtiruvchi o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday oyinlar samarali ta'sir ko'tsatadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflar uchun yaratilayotgan o'quv qo'llanmalarida shu sohaga oid materiallar tanqisligi ko'zga tashlanib turadi.

Hozirgi davrda pedagogik texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Pedagogik texnologiya o'quvchilar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lim shakllarini amalga oshirish uchun ko'zlangan natijaga erishishda eng qulay yo'l va usullarni tanlash va ishlab chiqish mahorati ekan, u

Haqiqatdan ham ta'lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Shuning uchun ham ta'lim ishiga texnologik yondashuv katta ahamiyatga ega.

Ta'lim ishiga texnologik yondashuv:

- ta'lim jarayoni maqsadini aniq belgilashni;
- o'qish-o'qitish jarayonini uzviy bog'liq bosqichlar, fazalar, amallarga ajratish, bo'lishni;
- ta'lim jarayonida mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;
- loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini bir xil bajarishni nazarda tutadi.

Pedagogik texnologiyada ta'lim jarayonining maqsadini belgilash muhim bo'lib, u rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim. Shuning uchun ham

o'qituvchilar maqsadni aniq belgilashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Har bir o'qituvchi avvalo o'zi o'qitadigan o'quv predmeti va har bir o'tiladigan darsi maqsadini aniq belgilashi kerak.

Shuni ta'kidlash lozimki, belgilangan maqsad asosida o'tkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish osonlashadi.

Didaktik jarayonning samarali o'tishida motivlar muhim o'rin tutadi. Chunki qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilimlarga samarali bo'ladi.

Motiv kishini biror ish-harakatni bajarishga undovchi da'vat, turtki. Shunday ekan, muallimlar bolada o'qish motivlarini hosil qilishga intilishlari va uni o'stirishlari kerak. Motivlar o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni oson egallashlariga yordam beradi.

Motiv bolada bilim olishga ishtiyoq va qiziqish uyg'otadi. O'qituvchilar bundan mohirlik bilan foydalanishlari va o'quvchilarga beriladigan mustaqil ishlar tizimini ishlab chiqishlari foydadan xoli bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik o'yinlardan foydalanishlari yaxshi samara beradi.

Chunki 6-7 yoshli bolalar hayotida maktab davri ancha murakkab davr bo'lib, bolalar oldida jiddiy sinov turadi. Bola yangi hayot - maktab hayotiga kirib boradi. Endi u yangi jamoaning a'zosi ekanligini his etishga, intizomga bo'ysunishga, yangi rejimga moslashishga majbur bo'ladi. Bola yosh bo'lishiga qaramay, endi uning maktabda oqish, uy vazifalarini bajarish, murakkab materiallarni o'rganish kabi zarur yumushlari ko'p. Muhimi, o'yindan maktabga, kundalik majburiy va davomli mehnatga o'tish bola hayotida tub burilishdir. Hatto maktabgacha tarbiya muassasalaridan kelgan bolalar uchun ham bu oson kechmaydi. Uydan maktabga kelgan bolalarga esa yana ham qiyin. Ayniqsa, sinfda 40—45 daqiqalik darsda o'tirish, tinglash va topshiriqlarni bajarish, uzoq aqliy mehnat bolani tez toliqtiradi. Bola maktabdan, o'qishdan sovib ketishi mumkin. Shuning uchun ham o'qituvchilar bolalarning maktabdagi hayotini qiziqarli tashkil etishga intilishlari, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga harakat qilishlari lozim. Motiv o'z- o'zidan hosil

bolmaydi. Uni bolalar yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos didaktik o'yinlar va mustaqil ishlar vositasida hosil qilish mumkin.

Ayniqsa boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida o'quvchilarni darsga jalb etish samarali bo'ladi. Shunday darslarda bolalar diqqati to'liq jalb etiladi, xotirasi yaxshi ishlaydi. Motivlar o'quvchilarning bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga e'tibor qaratishlari zarur.

«Pedagogik texnologiya» tushunchasining vujudga kelishi, ta'limning ilk tashkiliy va metodik shakllarining vujudga kelishi bilan bogliq. Individual ta'lim o'quv-tarbiya jarayonining eng qadimiy tashkiliy shakli bo'lib, u dastavval qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan edi. O'qituvchi bir o'quvchi bilan ishlab, ta'limni bevosita tashkil etgan, boshqargan, nazorat etgan. O'qituvchi matnlarni o'qib bergan yoki bolalariga o'qitib so'zlatgan. Qoida va ta'riflarni yodlash, jismoniy mashqlarni bajarish musiqa asboblari bilan u yoki bu kuyni ijro etish yo'llari bilan bolalar hayot, san'at, notiqlik, jismoniy madaniyatga oid bilimlarni o'zlashtirgan.

Keyinchalik individual ta'lim o'rnini guruhlar asosida o'qitish egallagan. O'rta asrlarga kelib qoidalarni yodlash, bir xil tipdagi mashqlarni bajarish, og'zaki savol-javob, yuqori pag'onalarda esa ma'ruza, munozara ta'limning yetakchi usullariga aylana boshlagan. Bu holat asta-sekin sinf - dars sistemasini keltirib chiqarib yangi texnologiyalarni kelib chiqishiga zamin hozirlagan.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida xorijiy mamalakatlarda ko'plab pedagogik nazariyalar vujudga keldi. Ularning ayrimlari ta'lim-tarbiya tizimini yaxshilashga, o'quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan edi.

Shu davrlarda «Yangi maktablar» degan pedagogik oqim paydo bo'lib, uning asoschisi fransuz pedagogi E. Demolen edi. Bunday maktablar Angliya, AQSh, Fransiya, Belgiya, Shveysariya kabi ko'plab davlatlarda ochildi. Jenevada «Yangi maktablarning xalqaro birlashmasi» tuzildi va unda yangi maktablarga qo'yilgan talablar belgilab berildi. Bu maktablar xususiy bo'lib, unda haq to'lashga kodir kishilarning bolalarigina o'qitilgan. Yangi maktablarda ish yaxshi yo'lga qo'yilgan,

to'liq jihozlangan kabinet va laboratoriyalar tashkil etilgan, «erkin va faol» metodlar qo'llanilgan. O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlari bo'lgan.

Maktablarning amaliy pedagogik laboratoriyasi bo'lib, bolalarning miyasini yodlab olingan bilimlar bilan to'ldirish orqali ta'lim berish o'rniga, ularning fikrlash qobiliyatini umumiy o'stirish yo'li bilan ta'lim berishga harakat qilingan. O'quvchilarga qanday qilib kuzatish, gipotezalar topishni, o'z taxminlarini tekshirib ko'rishni o'rgatganlar. Bunday maktablarda o'qitish faktlarga va tajribaga tayanishga, bolalarning tashabbuskorligi va mustaqilligini tarbiyalashga asoslangan edi.

XIX asr oxirlarida Germaniyada pedagog Vilgelm Avgust Lay (1862- 1926) «ish-harakat pedagogikasi»ga asos soldi. Uning g'oyalarida ham o'ziga xos ijobiy tomonlari, yangiliklar bor edi. Lay pedagogik jarayonda ifodalash, tasvirlashga katta ahamiyat berdi, chunki uning fikricha, mana shunday ifodalash yoki tasvirlash jarayonida o'quvchilar o'z faolliklarini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladilar, harakat qiladilar.

Uning fikricha, tasvirlashning har qanday turlari: rasm solish, loy va plastilindan buyumlar yasash, har xil narsalarning modelini yasash, chizmachilik, drammatizasiya, ashula, musiqa, raqslar, shuningdek, o'simlik hamda hayvonlarni parvarish qilish tajribalarini o'tkazish, og'zaki va yozma ishlar va shu kabilar ta'lim jarayonidagi «ifodalash» vositalaridir. Lay fikricha hamma darslar ana shu qoidalar asosiga qurilishi lozim.

Mavzuning barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishish; o'quvchilarning ravon va to'g'ri, ongli va ifodali o'qishining takomillashuviga erishish; Mashg'ulotga o'quvchilarning faol qatnashuviga erishish; ularning o'qish motivlarini qo'zg'ash va qiziqtirish, o'quvchilarni faollashtirish yo'llarini belgilash va qo'yilgan maqsadga to'liq erishish; Pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va boshlang'ich ta'limda uni qo'llash yo'llarini izlash va takomillashtirish, o'z ustida ishlash; Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish motivlarini o'stirish ustida ishlash; Darsni hayotiy tajribalar bilan bog'lash.

Va buning oqibatida o'quvchi to'g'ri, ongli va ifodali o'qishga o'rganad Turli mashqlar vositasida tez o'qish malakalari takomillashadi. Vatan haqidagi tushunchalari kengayadi, Vatanga muhabbat shakllanadi, Vatandan g'ururlanish, ya'ni milliy g'umr shakllanishiga asos yaraladi. Matn bilan mustaqil ishlashga o'rganish. O'z fikrini erkin bayon etishga o'rganish; o'rganilganlar asosida ertak, maqol, hikmatli so'zlar, tez aytishlarni o'rganish. o'rtoqlari fikrini ma'qullash yoki yangi fikrlarni aytishga o'rganish.

Dars qurilishida ham qat'iy andoza, birinchidan, ijodkorlikka yo'l bermaydi, ikkinchidan, o'quvchilarning imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Shuning uchun ham biz o'qish darsning taxminiy algoritmini diqqatingizga havola etamiz:

Darsning maqsadi.

Ta'limiy maqsad:

- a) o'quvchilarning to'g'ri va ravon o'qish malakalarini shakllantirish;
- b) matn mazmuniga ko'ra, o'quvchilarning xususiyatiga mos tabiat, jamiyat va inson tafakkuri haqidagi bilimlarni hosil qilish;

Tarbiyaviy maqsad:

- a) o'quvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirish;
- b) matn mazmuniga ko'ra aqliy, ma'naviy-a'loqiy, estetik, jismoniy, mehnat, ekologik, iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish.

Rivojlantiruvchi maqsad:

- a) o'quvchilarning o'qish malakalarini rivojlantirish;
- b) tez, ravon, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish;
- d) dunyoqarashlarni, hulq-odob, insoniy munosabatlarni, aqliy, jismoniy va boshqa sifatlarni rivojlantirish;

Darsni tashkil etish:

Birinchidan, o'qituvchi o'quvchilarga darsga qiziqish uyg'otishi zarur. Yani, **Motiv hosil qilish:** Buni darsning o'tgan darsni mustahkamlash qismida va yangi darsni o'tishga tayyorgarlik qismida, butun dars davomida ham amalga oshiriladi. Motiv hosil qilishda turli didaktik o'yinlar, topshiriqlar, musobaqalar va boshqa ish usullaridan foydalaniladi.

2-O'quv elementi. Matnni o'qishga tayyorgarlik: yozuvchi haqida ma'lumot beriladi. Matn mazmuni haqida tushuntirilib, o'quvchilarning matn- ga qiziqishlari oshiriladi. Ba'zan matn mazmuni haqida gap boshlab, qolganini kitobdan o'qib, o'rganamiz, deb, o'qituvchi bolalarning matnga qiziqishini oshiradi. Tarbiyaviy ta'sirini kuchaytiradi.

3-O'quv elementi. Matnni o'qish va mazmunini so'zlash. Bunda o'qituvchi matnni o'zi o'qib beradi va mazmunini tushuntiradi yoki bu ishni tashkil etishda o'quvchilar faolyatidan ham foydalanishi mumkin.

4-O'quv elementi. Quvnoq daqiqa.

5-O'quv elementi. Lug'at ustida ishlash. Notanish so'zlarga izo' berilib, o'quvchilarning so'z boyliklari oshiriladi (bunda ko'proq o'quvchilar faoliyatini ishga solish lozim), dunyoqarashlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatiladi.

6-O'quv elementi. O'quvchilar matnni o'qiydilar. Bunda ham motivni rivojlantirish uchun o'quvchilar guruhlashtirilishi mumkin. 2 ta, 3 ta 4 tadan o'quvchilar guruhi matnni navbat bilan o'qiydilar. To'g'ri, ravon va ifodali o'qishga alohida diqqat qaratiladi. Shu talablarga rioya qilgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

7-O'quv elementi. Topshiriq bilan o'qish. O'qituvchi o'quvchilarning o'qish malakalarini rivojlantirish, o'qiganini tushunib olishga o'rgatish uchun turli mashq usullaridan foydalanadi. Matn mantiqiy qismlarga bo'linib, har bir qismining mazmunini so'zlash topshirig'i, qismlarga alohida sarlav'a topish, reja tuzish kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Bu o'quvchilarning dunyoqarashlarining rivojlanishi, mantiqiy fikrlashga o'rganishiga yordam beradi.

8-O'quv elementi. Quvnoq daqiqa.

9-O'quv elementi. Matn mazmuni ustida ishlash. O'quvchilar matn mazmunini so'zlab berishlari yoki turli didaktik o'yinlar vositasida mazmunni o'zlashtirishi mumkin.

Masalan, «Davom ettir» o'yini: O'qituvchi matn mazmunini hikoya qilishni boshlaydi, bir o'quvchi uni davom ettiradi. Shu taxlitda barcha o'quvchilarni matn hikoyasiga qatnashtirish mumkin.

«Zanjir» o'yini: matndagi bir necha so'zlar vositasida bu o'yinni o'ynash mumkin. O'qituvchi boshlab bir so'z aytadi, so'zning tugagan harfidan boshlanadigan so'zni bir o'quvchi aytadi, shu taxlitda hamma o'quvchilarni o'yinga qatnashtirish mumkin.

«Tez javob»: O'qituvchi yoki boshlovchi o'quvchilar qatori oralab yurib, o'quvchilardan birini turg'izadi va biror tur nomini aytadi. O'quvchi shu turga kimvchi so'z topib aytishi lozim. Javob uchgacha sanaguncha aytilishi kerak. Javob berolmagan o'quvchi o'yindan chiqadi. O'yin toki bir o'quvchi qolguncha davom ettiriladi. Bunday o'yin davomida o'quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil fikrlash malakasi rivojlanib, atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzatishga o'rganadi, atrofdagi sodir bo'ladigan voqea va hodisalarga qiziqishi ortadi.

Bu o'yindan dars davomida o'tilgan mavzuga bog'lab, darsning mustahkamlash qismida yoki dam olish daqiqalarida foydalanish mumkin.

O'qituvchi: «Hayvon».

O'quvchi: «It».

O'qituvchi: «O'quv quroli».

O'quvchi: «Daftar».

O'qituvchi: «Sinf jihozi».

O'quvchi: «Xantaxta».

O'qituvchi: «Ertaklar».

O'quvchi: «Zumrad va Qimmat» va hakoza.

Shu kabi o'yinlardan foydalanish orqali o'qituvchi o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantiradi va ularning dunyoqarashlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, o'quvchilarda topqirlik, chaqqonlik, bilimdonlik kabi sifatlarni rivojlantiradi, xulqiga ta'sir ko'rsatadi.

10-O'quv elementi. O'quvchilar bilimni nazorat qilish. Nazoratni yo'qoridagi didaktik o'yinlar vositasida va testlardan foydalanib o'tkazish mumkin.

Agar tekshirish davomida dars maqsadiga erishilgan bo'lsa, demak dars texnologiyasi to'g'ri ishlangan va uni takomillashtirish muntikin. Agar maqsadga

erishilganlik darajasi past bo'lsa, demak loyihani korrrektirovka qilish (o'zgartirishlar kiritish) kerak. O'qituvchi qaerda xato qilganini bilib, xatolarini tuzatadi.

Bu dars yangi bilim berish darsining algoritmi bo'lib, uni boshqacha tarzda ham tashkil qilish mumkin.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, rang-barang baholash usullaridan foydalanish, ta'lim vositalaridan o'rinli foydalanish talab etiladi

O'zbek xalqining ulug' allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniy asarlarida yosh avlodga bilim berishning turli yo'llari va vositalari haqida tushunchalar berilgan bo'lib, ularni mustaqil fikrlaydigan, yangilik yarata oladigan qilib tarbiyalash xususida to'xtalib o'tgan. «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida Beruniy sxolastik metodlardan voz kechish, dars samaradorligini oshirish yo'llarini izlash bolalarning xotirasini rivojlantirishga, fikrlashga o'rgatishini ta'kidlab o'tgan. «Maqsad gapni cho'zish emas, balki o'quvchini zeriktirmaslik, chunki doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O'quvchi fandan-fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi. Birini ko'rib ulgurmasdan boshqasi boshlanadi va u kishi har bir narsada o'ziga yarasha lazzat bor deyilganidek ularni ko'rishga qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malol keltiradi»<sup>5</sup>

Ta'lim berish o'qituvchidan izlanishni, pedagogik mahoratni talab qiladi. Ilmiy salohiyatga boy bo'lgan ustozgina mavzuni pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilarga mahorat bilan etkazib beradi. Mavzuning

---

<sup>10</sup> Beruniy. Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. Tosh- kent, 1968. 106-107-b.

maqsadiga qarab, ta'lim metodlarini tanlay biladi, kerakli vositalardan o'z o'rnida foydalanadi.

O'quv informatsiyasini so'z orqali uzatish va axborotni eshitish orqali qabul qilish metodlariga nimalar kiradi va ularga qanday talablar qo'yiladig'

O'qitishning og'zaki metodlari uch turga:

- a) o'qituvchining hikoyasi;
- b) suhbat;
- v) maktab ma'ruzasiga bo'linadi.

Hikoya usuli boshlang'ich sinflarda ko'p qo'llaniladi. Ta'lim mazmuni o'quvchiga qisman tanish bo'lsa suhbat usuli qo'llaniladi. Og'zaki bayon qilish usulida har ikkala faoliyatning o'qituvchining bayon qilishi va o'quvchilarning shu bayon qilingan bilimlarini diqqat bilan tinglab ongli va mustahkam o'zlashtirishlari birligiga amal qiladi.

Hikoya maktab ta'lim tizimida eng ko'p qo'llanadigan usul bo'lib, u hamma sinflarda barcha fanlarni o'qitishda, maktab ta'limining hamma bosqichlarida qo'llaniladi. Boshlang'ich sinflarda bu ancha qisqa va aniq bo'ladi, sinflarning o'rta guruhiga kelib hikoya ancha kattaroq hajmda va davomli bo'ladi.

O'quv materialini og'zaki bayon qilish usuli quyidagi bir qator didaktik qoida va talablarga asosan qo'llaniladi:

O'qish darslarida bayon qilinayotgan materiallar g'oyaviy jihatdan mazmunli, ilmiy hamda nazariyani amaliyot bilan bog'lashga qaratilgan bo'lishi kerak. Bayon qilinadigan materiallarning tarbiyaviy ahamiyatini to'g'ri ko'rsatish orqali o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mumkin. Oqish darslarini tashkil etishning qanday hollarida suhbat usuli qo'llaniladig' Uni qo'yishda qanday qoidalarga amal qilish lozim? Suhbat usuli - savol-javob usuli deb ham yuritiladi.

O'quvchilar darsga etarli darajada tayyor bo'lsa o'qituvchi rahbarligida muammoli savollarga javoblarni o'zlari axtarib topadigan suhbatlar maqsadga muvofiqdir. Bunday suhbatlar evritsik izlanish, axtarib topish harakterida bo'ladi.

O'qish jarayonida o'rganilayotgan mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo'llaniladi.

Suhbatlar, ayniqsa, o`qitishning tarbiyalovchilik harakterida dunyoqarash, e`tiqodni tarkib toptirishda qo`l keladi. Suhbatlar butun sinf hamda o`quvchilarning ayrim guruhlarini bilan ham o`tkaziladi.

Suhbatlar orqali:

a) O`quvchilarning o`z hayotlarida uchratgan voqea, hodisalar yuzasidan savollar berish orqali o`quvchilarning mustaqil fikr qilishlarini amalga oshiradigan holatlarga e`tibor qilish, o`quvchilarning ilgari o`rgangan tayanch bilimlarini esga tushirishga erishish lozim. Suhbat usuli bilan ish ko`rganda o`qi-tuvchi quyidagilarga amal qilishi lozim:

O`qituvchining suhbat uchun tayyorlab kelgan savollari sinf O`quvchilarining hammasiga taalluqli bo`lib, so`roq o`rtaga tashlanishi kerak.

O`quvchilardan biri javob berish uchun chaqiriladi.

Sinfninghamma o`quvchilari javob berayotgan O`quvchini qunt bilan tinglashi, uning javobini to`ldirishi, tuzatishi, oydinlashtirishga yordam berishini ta'minlashi kerak.

O`quvchilarning javobi qay darajada to`g`ri-noto`g`ri bo`lishidan qat'i nazar o`qituvchi tomonidan izohlanishi, yakunlanishi va baholanishi zarur.

Ta'lim jarayonida turli ko`rgazmali qurollardan foydalanishga harakat qilamiz. Ho`sh, ushbu o`quv informatsiyasini ko`rgazmali uzatish va ko`rish orqali qabul qilish metodining ahamiyati qandayg` Ko`rgazmalilikning qanday turlari mavjudg` degan savollarga javob topishga harakat qilaylik.

Ko`rgazmali usulning muhimligi o`rganilayotgan narsa va hodisalarni hissiy idrok etishga, ularni kuzatib mushohada qilishga o`quvchini undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilishga, nihoyat nazariy bilimlarni amaliyotda qo`llay olishga o`rgatishdan iborat.

Ta'limda ko`rgazmalilik usuli namoyish etish, illyustratsiya va ekskursiya tariqasida olib boriladi.

Ta'lim jarayonida namoyish etish usulidan foydalanish asosiy materialning harakteriga - mazmuni, shakli va hajmiga bog`liq. Bu harakter ikki turlidir:

Aslicha ko`rsatilishi mumkin bo`lgan buyum va narsalar: o`simliklar, ularning tarkibi, hayvonlar, ma'danlar, kolleksiyalar, asbob va mashinalar, modellar va h.k.

Tasviriy ko`rgazmali materiallar:

A) buyum, narsa, hodisa va voqealarning tasvirini ifodalovchi materiallar, rasm, surat, fotosurat, diafilm va h.k.

Tasviriy ko`rgazmali materiallar turliligi har xil qo`llashni talab etadi.

Masalan:

1. Buyum va narsalarni tabiiy holda ko`rsatishni ikki usulda namoyish etiladi:

a) o`tilayotgan mavzuga oid badiiy ko`rgazma materiallari O`quvchi bayon qilayotgan bir vaqtda (faqat o`qituvchi ko`rsatadi);

b) tabiiy ko`rgazmali materiallarning soni etarli bo`lsa ular har bir o`quvchiga tarqatib beriladi.

2. Tasviriy ko`rgazmali materiallarning har ikkala turini ham ikki xil usulda olib borish mumkin:

a) ko`rgazmali materiallarni o`qituvchi namoyish etadi;

b) ko`rgazmali materiallar o`quvchiga tarqatiladi.

O`qitilayotgan mavzuning harakterini hamma vaqt sinfda ochib bo`lmaydi. Bu holda nima qilish kerakg' Ekskursiya metodidan foydalanish mumkin. Mavzuni ekskursiya usuli bilan ham ko`rsatish mumkin. Bu usulda o`rganilayotgan narsa hodisalarni tabiiy sharoitda zavod, fabrika, tabiatda, muzey, ko`rgazmalarda tashkiliy ravishda ko`rsatiladi. Agar ko`rsatilayotgan joyda o`tilayotgan mavzu mazmunini keng ochib berish imkoni bo`lsa, buni o`qituvchi oldindan borib kuzatib keyin O`quvchilarni olib boradi, ekskursiya usulidan foydalanadi, O`quvchilar ekskursiya davomida obekt ustidan ma'lumotlarni eshitish yoki kuzatish bilan chegaralanmasdan zarur materiallarni yozib oladilar, rasmini chizadilar, o`lchash, hisoblash ishlarini olib boradilar.

O`qituvchi ekskursiya oxirida mulohaza va fikrlarni umumlashtirib, xulosa chiqaradi va mashg`ulotni yakunlaydi.

Mashq davomida ilgari egallangan bilim, ko`nikma, malakalar, qonunlar faoliyatga tatbiq etiladi.

O`quvchilarning o`zlashtirilgan ko`nikma va malakalarni mustahkamlash ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asosida olib boriladi:

-mashq uchun berilgan topshiriqning maqsadi O`quvchi larga aniq tushuntirilgan borishi;

-mashq ustidan sinf o`quvchilar jamoasi va har qaysi o`quvchilarning shahsiy intilish, qiziqishini hisobga olishi;

-topshiriq butun sinf o`quvchilarining aktiv faoliyatini ta'minlaydigan bo`lishi va mashqni belgilangan vaqt ichida bajarishi talab etiladi.

Mashq qilishda o`quvchilarning yozma, ijodiy mashqlari alohida o`rin egallaydi.

Mutafakkir Abu Rayhon Beruniy (937-1048) didaktik qarashlarida o`quvchilarni o`qitish hamda tarbiyalash jarayonida, birinchidan, turli mavzularda mulohazalar yuritishni, o`quvchining zerikmasligini, zo`riqmasligini ta'kidlagan.

Ta'lim maqsadini muvaffaqiyatli amalga oshirish yo`lida ta'lim vositalaridan foydalaniladi. Kompyuter, Multimedia, kodaskop, filmskop, logorifm lineykasi, sirkul, apparat turlari - bular jumlasiga kiradi.

Ta'lim metodlarini to`g`ri tanlash va ulardan o`rinli foydalanish - ta'lim samarasini ta'minlashga yordam beradi

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o`quv-uslubiy majmualarini yaratish kabilar umumiy o`rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta'kidlangan.

Pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o`qituvchi va o`quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo`lgan o`qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o`qishga o`rgatish yo`l yo`riqlarini o`qish metodikasi ishlab chiqadi. O`qish metodikasi kichik yoshdagi o`quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi.

## Matnni ifodali o'qishga tayyorlanish

1. Matnni diqqat bilan o'qing.

Unda nima haqida aytilganini tushunishga harakat qiling.

2. Mavzuni, asosiy g'oyani, aytilish tonlarini aniqlang.
3. Matnni nima maqsadda o'qishingiz va tinglovchilarni nimaga ishontirishingiz haqida o'ylang.
4. Gapdagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan so'zlar ma'nosini belgilang.
5. Qaerda pauzalar bo'lishini belgilang.
6. Og'zaki, ifodali nutqning yana qanday usullaridan foydala nishingizni o'ylang, masalan, nutq tempi, ovoz balandligi yoki pastligi.

O'quvchilarda estetik rivojlanish va o'qish madaniyatini shakllanishida ifodali o'qish jarayonidagi emotsional idrok katta ahamiyatga ega. Shuningdek, o'qish texnikasiga ham e'tibor qaratish zarur.

4. Rejaning qoralamasini tayyorlang. Uni matn bilan solishtiring. Qarang: rejangizda hamma muhim tomonlar o'z aksini topganmiga? Reja punktlari mazmungan bog'langanmiga? Rejada mavzu va matnning asosiy mazmuni o'z aksini topganmiga?

5. Matnni qayta hikoyalashda shu rejadan foydalanish mumkinligini tekshiring.

## Hikoyaning rejasini tuzish

1. Hikoyaninhammasini o'qing. Uning qismlarini belgilang. Boshlanishi va tugashini qalam bilan belgilang. Hikoyani qanday qismlarga bo'ldingiz?

2. Birinchi qismni o'qing, undagi bosh g'oyani qalam bilan belgilang va shu qismga sarlav'a qo'ying.

3. Shunday yo'l bilan boshqa qismlarga ham sarlav'a qo'yishga harakat qiling. Rejani yozing. O'qing. O'ylang. Reja muhim tomonlarni o'z ichiga olganiga, asosiy tomonlar qolib ketmaganligiga ishonch hosil qiling.

## Qisqacha qayta hikoyalashni tuzish

1. Hikoya rejasini tuzing. Rejaning birinchi punkti va birinchi qismdan uncha muhim bo'lmagan, faqat bosh g'oyani to'ldirishga xizmat qiladigan 23 ta gaplarni ajrating. Matnni shu gaplarsiz o'qing.

2. Boshqa qismlar bilan ham xuddi shu ishni takrorlang.
3. Rejaga qarab hikoyani qisqacha hikoya qiling.
4. Hikoyaning asosiy qismini e'tibordan chetda qoldirmasdan yanada qisqaroq aytish imkoniyatlarini qidiring.

#### Qahramonlar tavsifi1.

1. Qahramon qanday ishlarni amalga oshirdi? Uning ishtirokidagi epizodlarni o'qing, uning xulqini e'tirof etuvchi lavhalar haqida hikoya qiling.

2. Qahramonning umumiy ko'rinishi qanaqa? Matndan uning tashqi ko'rinishi haqidagi qismni topib, o'z fikrlaringiz bilan to'ldiring.

3. Qahramon qanday so'zlashadi (gaplashadi)? Matndan uning mulohazalarini topib o'qing, muallifning personaj bayoniga bergan ta'rifi.

4. Muallifning qahramonga bo'lgan munosabatiIjodiy darslarda ish turlari

1. «Me'yordan yuqori» o'qishni o'rganish.
2. Voqea sodir bo'lgan joyga ta'rif bering. Ilyustratsiyada tasvirlang.
3. Agar siz muallif bo'lganingizda hikoyani qanday o'zgartirgan bo'lardingiz?

4. Reklama o'ylab toping.

5. Matnni qismlarga bo'ling. Reja tuzing.

6. Qisqacha qayta bayon tayyorlash.

7. Matndan obrazli taqqoslash qismlarini toping.

8. Diafilm tuzish.

9. O'qilgan matnga savol qo'yish.

10. Rollarga bo'lib o'qishga tayyorlash.

11. O'qilganlarga nisbatan maqol, topishmoq tanlash.

12. Masalan «Kuz», «Qish» mavzusiga oid insho yozish mumkin bolgan so'z va gaplarni alohida yozib oling.

13. Matinning asosiy g'oyasini ifodalaydigan gap yoki bo'lakni toping.

14. Kelgusi o'qish darsida o'rganish uchun badiiy matn tayyor lash.

15. O'qigan hikoyangizdan sizga yoqqan joyni yoddan ayting.

16. O'qilgan matndan obrazlar ifodalangan gaplarni toping.

17. O'qigan matningizga illyustratsiya chizing.

5. o'quvchilar bilimini hisobga olish va tekshirishning zamonaviy shakli bo'lgan matnlardan keng foydalanish, o'quvchi rivojlanishini hisobga olib, aniq maqsad asosida guruhda ishlash muvofaqiyatliroq, Bunday ish turining afzalligi shundaki, o'qituvchi darsga tayyorlanishda aniq maqsadga ega bo'ladi va ishi ancha engillashadi.

## **2.2. Boshlang'ich sinf o'qish darslari jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash usullari**

Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, insoniyat hayotiga turli yangiliklarning kirib kelishi ta'lim sohasida ham bir qator o'zgarishlar qilinishini taqoza etmoqda. Hozirgi kunda ta'lim sohasida erishilgan yutuqlarni saqlagan holda, bir xillikdan, bir qolipga tushib qolishdan saqlanmoq zarur. Ta'limning kishi xotirasini rivojlantirishga asoslangan turidan inson tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, o'quvchilar egallagan bilimlarni amaliyotda qo'llash, ularda amaliy ko'nikma va malakalar hosil etishga qaratilgan turiga o'tishga harakat qilish shu kunning talabi. Shunga erishilsagina vatanimiz kelajagi bo'lgan yosh avlod tarbiyasi oldiga qo'yilgan vazifa oqilona hal etilishi mumkin.

Ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ulardan o'rinli foydalanish - ta'lim samarasini ta'minlashga yordam beradi

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish kabilar umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta'kidlangan.

Pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi.

O'qitish metodi deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va O'quvchi faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. O'qitish usullari har ikkala faoliyatning:

a) o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish;

b) O'quvchilar tomonidan berilayotgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llanadigan yo'llarni o'z ichiga oladi.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatish yo'l-yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasi kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi.

O'qish darsining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Binobarin, fanning o'zi kabi o'qish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo'ladi. Masalan, eski maktablarda o'qish quruq yod olish metodi asosida o'rgatilgan bo'lsa, hozir izohli o'qish asosida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi sozlarga izoh berishga, ma'nosini tushuntirishga, o'qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilgan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuz, qiroat bilan o'qish, ifodali o'qish nazarda tutilgan.

Hozir maktablarda o'qish izohli o'qish metodi asosida olib borilayotgan ekan, quyidagicha savol tug'iladi: izohli o'qish nima?

**Izohli o'qishga** XIX asrning 60-70-yillarida rus pedagogi K. D. Ushinskiy asos slogan, u o'qishda o'quvchilarni "ongli, tushunib, o'ylab o'qishga" o'rgatishni alohida ta'kidlaydi va uni "Izohli o'qish" deb nomlaydi.

Izohli o'qish metodiga K. D. Ushinskiy ishining davomchilari yangiliklar kiritdilar. Korf va Vaxterev izohli o'qish o'quvchilarga real bilim berish vositasi desa, Vodovozov va Bunakov o'quvchilarga o'qish jarayonida ham badiiy asar tahlili va asarning tarbiyaviy xarakteri bilan bo'g'liq holda beriladi, degan fikrni ilgari suradilar.

Professor Asqar Zunnunov o'qitishning mazmuni va usullari haqida fikr yuritib, o'quvchilarning oldin bilimlarni o'zlashtirishiga, so'ng yod olishlariga e'tibor berilishi ta'lim jarayonida izohli o'qish deb nomlanganini ta'kidlaydi.

Demak, izohli o'qish deb o'ylashga, his qilishga, asarni to'liq idrok qilishga, o'qilganning mazmunini o'zlashtirishga olib keladigan o'qishga aytiladi. Izohli o'qish asar mazmunini tushunishni, asardagi muhim fikrni, yozuvchi ilgari surayotgan g'oyani anglashni ta'minlaydi.

Izohli o'qish quyidagi tamiyillarga to'liq amal qilingandagina muvofaqiyatli bo'ladi:

1. o'qishni hayot bilan bo'g'liq holda tashkil etish.
2. o'qishning ongli va ta'sirchan bo'lishi uchun o'quvchilarning hayotiy tajribalariga, taassurotlarga asoslanish.
3. O'qishni ko'rgazmali tashkil qilish, tabiatga, tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish, hayvonot olami va o'simliklar dunyosini kuzatish, rasmlar, jadvallar, predmetlar bilan tanishtirish hamda matnni o'quvchining ifodali o'qishi tarzida olib borish.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida asosan she'rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o'qib o'rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o'ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o'ziga xos usulda o'qib o'rganish taqazo qilinadi.

Badiiy asarni izohli o'qishga yaqin bo'lgan metodlardan biri ijodiy o'qishdir. Atoqli metodist olim N. I. Kudryashov ijodiy o'qish metodi tarkibiga quyidagi ish usullarini kiritadi:

a) o'qituvchilarning badiiy matnni sharhlab o'qishi hamda o'quvchilarning asarni to'g'ri va imkon qadar yanada chuqurroq, emotsional idrok etishlarini ta'minlash maqsadini ko'zda tutuvchi so'zi:

b) o'qilgan asardan o'quvchilarning bevosita olgan taassurotlarini chuqurlashtirish maqsadiga ega bo'lgan va ularning diqqatini matnning muhim g'oyaviy va badiiy,

axloqiy, ijtimoiy-siyosiy muammoning qo'yilishi;

d) o'qituvchining asar o'qilganidan keyin o'quvchilarning asarni tadqiq etish jarayonida tug'ilgan badiiy kechinmalarini faollashtirish maqsadini ko'zda tutuvchi

Ko'rinadiki, ijodiy o'qish izohli o'qishdan farqli o'laroq, to'g'ridan to'g'ri matn mohiyatini ochishga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Masalan, 4-sinfda A. Oripovning "Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi" asarini ijodiy o'qish metodi

asosida o'rganish jarayonida matn mazmuni va shoir g'oyaviy niyatidan kelib chiqib Vatanimiz hududlaridagi aholining yashash tarzi bilan bog'liq milliy xususiyatlar haqida ham atroflicha tushuncha beriladi. 2-sifda "o'tinchi yigit", 3-sifda O'tkir Hoshimovning "Xazonchinak", 4-sinfda S. Anorboevning "Qo'rqqoq" asarlarini ham ijodiy o'qish metodi asosida o'qitish ijobiy samaralar beradi.

**Ifodali o'qish.** Boshlang'ich ta'lim tizimida mantiqiy o'qish (matnni to'g'ri, tushunib, tez (me'yorida) o'qish) va adabiy o'qish mukammal o'zlashtirilganidan song ifodali o'qishga o'tiladi. U yod olingan she'riy asarlarni ifodali o'qishni ham o'z ichiga oladi. Ifodali o'qishning muvoffaqiyati o'quvchilarning asar mazmuni, g'oyaviy- badiiy xususiyatlari haqida muayyan tushunchaga ega bo'lishlari bilan bog'liq.

Ifodali o'qish intonatsiya – ohang yordamida asarning g'oyasi va jozibasini to'g'ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. Ifodali o'qish adabiyotni aniq va ko'rgazmali o'qitishning dastlabki va asosiy shaklidir", deb ta'kidlaydi metodist olim M. A. Ribnikova<sup>11</sup>. Demak, "Ifodali o'qishning asosiy vazifasi asarning mazmunini va emotsionalligini intonatsiya orqali o'quvchilarga ko'rgazmali qilib ko'rsatishdir. Ifodali o'qishning asosiy tamoyili o'qiladigan asar go'yasi va badiiy qimmatini chuqur tushunishdir"<sup>12</sup>

Ohang va intonatsiya she'riy asarlarni ifodali o'qishda qay darajada muhim bo'lsa, nasriy asarlarni o'qishda ham muhim talablardan biridir.

Nasriy asarlarni o'qishdan oldin unda qanday g'oya ilgari surilayotganini aniqlash zarur. Masalan, ifodali o'qish oldiga qo'yilgan 4-sinfda X. To'xtaboyevning "Xatosini tushungan bola" hikoyasini ifodali o'qishdan oldin o'quvchilarga xatosini tushungan bola kim ekanligi, uning xatosi nimalardan iborat bo'lganligi, maqtanchoqlikning yomon illat ekanligi to'g'risida tushuncha beriladi.

Ifodali o'qish oldiga qo'yilgan bu talab M. Abdurashidxonovning "Ha kim ekanin it", kabi she'riy hikoyalarini o'qishga ham xosdir.

Matnni ifodali o'qishga tayyorlanish

---

<sup>11</sup> Рыбникова М.А. очерки по методике литературного чтени. – Учпедгиз 1945. – стр. 125.

<sup>12</sup> Jo'rayev K. ifodali o'qish va hikoya qilish. - .: "o'qituvchi", 1968. 7-9-betlar.

1. Matnni diqqat bilan o'qing.

Unda nima haqida aytilganini tushunishga harakat qiling.

2. Mavzuni, asosiy g'oyani, aytilish tonlarini aniqlang.

3. Matnni nima maqsadda o'qishingiz va tinglovchilarni nimaga ishontirishingiz haqida o'ylang.

4. Gapdagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan so'zlar ma'nosini belgilang.

5. Qaerda pauzalar bo'lishini belgilang.

6. Og'zaki, ifodali nutqning yana qanday usullaridan foydala nishingizni o'ylang, masalan, nutq tempi, ovoz balandligi yoki pastligi.

Xotira, nutq va tafakkurning rivojlanishiga 5moduldagi ishlar xizmat qiladi. Bunday ishlarni tartibga so'sh uchun quyidagi eslatmadan foydalanish maqsadga muvofiq.

**Badiiy o'qish.** Badiiy o'qish ifodali o'qishning yuksak bosqichi hisoblanadi. Unda soz san'atining barcha komponentlari ishtirok etadi. U o'quvchidan asar ruhiga batomom kirishni, san'atkorona o'qishni talab etadi. Badiiy o'qishda asar qahramonlarining ruhiy holati, kechinmalari to'la anglab yetilgandagina ta'sirchanlikka erishish mumkin. Badiiy o'qishga tayyorgarlik ko'rishda aktyorlarning audio-video tasmlarga yozilgan ijrolaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Badiiy o'qishning muvoffaqiyatini ta'minlaydigan omillardan biri tanlab o'qishdir. Masalan, 3-sinfda X.To'xtaboyevning "Hassa" hikoyasi bilan tanishish jarayonida Qobil boboning savollariga Shavkatning javoblari yoki S. Anorboyevning "Bahs" hikoyasidagi epizodi yuzasidan o'qituvchi topshirig'iga ko'ra mazkur o'rinlarni tanlab qayta o'qilishi natijasiga ushbu asarlarning badiiy-estetik qimmatini chuqurroq o'zlashtirishga erishiladi.

**Izlanish metodi.** Bu metod asardagi voqea va tafsilotlar asosida o'quvchilarga savol-topshiriqlar tuzishda, qahramonlarga baho berishda keng qo'llanilarigan usuldir.

O'qish darslarida reproduktiv metod keng qo'llaniladi. Xo'sh bu usulni qachon qo'llash mumkin?

Bu usullar o`quvchilarning yangi tushuncha, hodisa va qonunlarni bilishdagi ijodiy faolliklari darajasini baholash asosida qismlarga ajratiladi. Reproduktiv usullar o`quvchilarning o`quv materiallarini mustahkamroq eslab qolishlarini ta'minlash, bilishga doir faoliyatni bevosita boshqarish, kamchiliklarni tez aniqlash uchun amaliy ko`nikma va malakalarni tarkib toptirish maqsadida qo`llaniladi.

Reproduktiv usullar - o`quv materialining mazmuni, asosan, ahborot harakterida bo`lsa, amaliy harakatlarning usullarini ta'riflansa, o`quvchilarning bilimlarini mustaqil qidirib olib bilishlari uchun juda yangi hisoblansa, vaziyatlarni hal qilish uchun tayyor Qanday holda induktiv va deduktiv usullar qo`llaniladig` Ayniqsa, deduktiv o`qitishga talab va e'tibor kuchaydi. Bu usulda tafakkur qilish katta samara beradi. Induktiv yoki deduktiv usullarni qo`llash o`rganilayotgan mavzu mazmunini ochishning ma'lum mantig`ini - xususiyydan umumiyga yoki umumiydan xususiyyga o`tishni tanlashni anglatadi.

Bu usulda tafakkur qilish katta samara beradi. Reproduktiv usulda o`quvchilar ilgari yoki yaqinda egallagan bilimlarini qo`llaydi. Masalan, o`qituvchi dastlabki darslarda o`zi asar matnini qismlarga bo`ladi, yozuvchi yoki shoirning aytmoqchi bo`lgan muhim fikriga o`quvchilar diqqatini jalb qiladi, uni aniqlab ko`rsatadi, o`quvchilar bilan birga tasvir vositalariga yuklatilgan ma`noni ochib, o`quvchilarga ko`maklashadi. Bularning bari o`quvchilar uchun bir ko`rsatma vazifasini o`taydi. Shundan so`ng o`quvchilar o`qituvchining ko`rsatmalari yordamida yuqorida ko`rsatib o`tilgan vazifalarni o`zlari mustaqil ravishda bajaradilar.

Yuqorida ta'kidlangan metodlardan tashqari, boshlang'ich sinf o`qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya sullaridan "Aqliy hujum", "Tarmoqlash", "Guruhlar bilan ishlash", "Blis texnologiyasi", "FSMU texnologiyasi" kabilardan ham foydalanish yaxshi samara beradi.

Shuni ta'kidlab o`tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan foydalanish, darsda qanday usullarni qo`llash o`qituvchi o`qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi lozim.

2-sinf o'qish darsidagi ish turlarini quyidagicha belgilash mumkin

– O'qituvchi topshirig'i bo'yicha matnni to'liq o'qish.

–Matnni bo'laklarga bo'lish.

–Tayyor reja bo'yicha o'qish.

–Matnni o'qib, mazmunini hikoya qilish.

–Matnni tayyorgarlik ko'rgan o'quvchilar tomonidan o'qilishi. Matnni qisqartirib o'qish.

–Xatboshi bo'yicha o'qish.

–Matndan rasmga bag'ishlangan qismini o'qish.

–O'qituvchining savollariga matndan javob topib o'qish.

–Tanlab o'qish.

–Gapning boshi yoki oxiridagi so'z asosida to'liq gapni topish.

«Me'yor»dagidan yo'qori tezlikda o'qish.

–Ertak yoki masalni o'qiganda « Nima haqiqatga yaqin, nima o'ylab topilgan» mavzusida suhbat.

–Maqol sifatida aytiladigan gaplarni topish.

–Matndan xulosalarni topish.

–Matnga o'z sarlavhasini tanlash.

–Rollarga bo'lib o'qish.

–Dialoglarga bo'lib o'qish (muallif so'zlarisiz).

–O'qiganlarni qayta gapirishda mimika, imoishoralardan foydalanish.

«Jonli tasvirlar» o'yini. Bir kishi o'qiydi, ikkinchi kishi eshitganlarini mimika, imo ishoralar yordamida takrorlaydi. Matndagi har xil kayfiyatga xos qismlarni topish (quvnoq, xafa, bcfarq).

Matndagi diqqat bilan o'qishni talab qiladigan qismni topish.

Matndan undov, so'roq xarakteridagi gaplarni topish. Musobaqa' o'qish.

Siymolarni ifodalovchi so'zlarni topish.

Urg'u berilganda so'zlar ma'nosining o'zgarishini kuzatish va o'qish.

Sekin, tez, baland o'qiladigan gap va so'zlarni aniqlash.

She'rlarni bandlar bo'yicha o'qib, pauza bilan tugatish. She'rdan bir bandni tanlab, ifodali o'qish.

Matndan yoyiq gapli qismni topib o'qish.

O'qish darslari jarayonning samarali o'tishida motivlar muhim o'rin tutadi. Chunki qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilimlarga samarali bo'ladi.

Ta'limda faqat qiziqishga tayanib qolish ham motivatsiyaning asosli samarali bo'la olishini ta'minlamaydi. Bunda eng muhim samarali usul motivatsion-muammoli vaziyatlarni qo'yish yoki o'rganilayotgan predmetning ijtimoiy mohiyatini aks ettiradigan maxsus bilishga oid vazifalarning qo'yilishidir.

Masalan, yangi dars boshlanishida yoki o'tgan darsni so'rash va mustahkamlash paytida didaktik o'yinlardan foydalanib, o'quvchilarning darsga qiziqishlari oshiriladi. Motiv hosil bo'lgach, dars davomida o'quvchilarning qiziqishlari saqlanib turgan holda o'rganilayotgan mavzuning ijtimoiy ahamiyatiga e'tibor qaratiladi. Boshlang'ich sinfda dars jarayonida motivlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatlarini tashkil etishda motivlarga ko'proq e'tibor berishi o'quvchilarning bilim egallash jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

O'qituvchi dars loyihasini tayyorlar ekan, maqsadni oydinlashtirishi va shu maqsad asosida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatlarini shunday tashkil etishi lozimki, belgilangan maqsad to'liq amalga oshsin.

Darsda pedagogik texnologiyalarning metodlaridan foydalanish, o'quvchilarni bilimlarini kengaytirish o'qituvchidan katta mahorat talab etadi. U dars ishlanmasida boshqaruv yo'llarini belgilab oladi. O'z faoliyati va o'quvchilar faoliyatini tashkil etish yo'llarini, o'quvchilar bilimni nazorat etish yo'llarini aniq ishlab chiqadi. Ta'lim natijasini tekshirib, maqsadning nechog'li amalga oshganini aniqlaydi va keyingi loyihani tuzishda korrektilovkalar kiritib, yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni bartaraf etadi. O'qish darslarini tashkil etishda o'qituvchidan quyidagilar talab qilinadi:

Mustahkamlash-umumlashtirish darslarining maqsadi esa o'quvchilarning bo'lim yuzasidan o'rgangan bilimlarini mustahkamlash, umumlashtirishga xizmat

qiladi, bundan tashqari o'quvchilar bilimni nazorat qilishga ham xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun ham bunday darslar loyahasini qiziqarli yoki noan'anaviy tarzda ishlashga e'tibor qaratilsa ancha samarali bo'ladi.

Pedagogik texnologiyaning afzalligi zamon sinovidan o'tib, interfaol usullarning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi o'z isbotini topmoqda. Bu borada, pedagogik texnologiyalar muvofaqiyatlarni kafolotlovchi omilligini ta'kidlagan holda, izlanishlarimiz, bir qancha tajribalarimizni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish orqali olib bordik va bir qancha natijalarga erishdik. O'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida qurish o'quvchilar bilimni oshirish, og'izaki nutqini o'stirish maqsadida "Reklama" metodidan foydalandik. Bu metod boshlang'ich sinf o'qish darslarida qo'llanilsa o'quvchilarning kitob o'qishga bo'lgan ishtiyoqi, og'zaki nutqi shakllanadi, so'z boyligi oshadi, har bir mavzuga savol tuza olishga, erkin va mustaqil fikrlashga o'rganadilar. Ushbu metod orqali o'quvchilar ertaklarni, badiiy asarlarni reklama qiladilar. Reklama qilish jarayonida ertak, asar qahramonlariga xos sifatlarni ochib beradilar. Ya'ni asarni o'qib, asardagi voqea-jarayonlarni reklama qiladilar. Metodni qo'llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi.

1. o'quvchilar guruhlariga ajratiladi.
2. o'quvchilarga ertak yoki biror bir asarning mavzusi e'lon qilinadi.
3. o'quvchilar mavzudagi jarayonlarni, undagi qahramonlarni qisqa fikrlar bilan reklama qiladilar.
4. sinfdagi boshqa o'quvchilar esa ertak yoki asarning nomini topishadi.
5. Mazmunli, aniq va qiziq reklama tayyorlagan o'quvchi rag'batlantiriladi.

Bu metodning o'ziga xos jihati shungaki, unda o'quvchilar asar qahramonlarining rollariga kirib, she'rlarni esa ifodali tarzda o'qishga harakat qiladilar.

Bunga Termiz shahridagi 15-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinfida olib borilgan pedagogik tajriba ishlari orqali aniqlik kiritamiz. Termiz shahridagi

15-umumiy o'rta ta'lim maktabining 2-"E" sinfida O'qish fanidan o'tilgan ochiq darsning namunaviy dars ishlanmasi.

**Mavzu: Qarg'a bilan tulki masali**

**Darsning maqsadi:**

**a)ta'limiy maqsad:**

Qarg'a va tulki masali yuzasidan o'quvchilarga keng tushuncha berish, masal haqida ma'lumotlar berish, tabiatni asrab-avaylashga o'rgatish, dars davomida o'quvchilarda nutq malakasini shakllantirish,

**b)tarbiyaviy maqsad:**

Masalda berilgan ijobiy sifatlarni o'quvchilar ongiga singdirish, salbiy jihatlardan ogoh bo'lishga o'rgatish. Do'stlik tartib-intizomga rioya qilishga o'rgatish, kamtarlik, to'g'ri gapirish, shirinsuhanlik, rostgo'ylik fazilatarini tarbiyalash;

**v)rivojlantiruvchi maqsad:**

O'quvchilarda erkin va mantiqiy fikrlash, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Ularni hozirjavoblikka o'rgatish.

**Darsning turi :**

Yangi bilim beruvchi , bilimlarni mustahkamlovchi

**Dars shakli:** noan'anaviy dars

**Dars metodi:** suhbat , izlanish metodi , savol javob , baxs-munozara

**Dars metodikasi:** REKLAMA metodi,

**Dars jihozi:** chizmalar, hayvonlarni ifolaydigan rasmlar, tarqtmali kartochkalar, rag'batlantirish uchun jetonlar, ko'rgazmali qurollar, darslik, sinf taxtasi, proyektor, kopyuter;

**Sinf sharoiti:**Kichik guruhlar bilan ishlash uchun sinfxonani tayyorlash

## **DARSNING BORISHI**

### **1 . Tashkiliy qism**

O'qituvchi : So'zlarning eng shirini,

Ochiq aytsam sirini.

Odob bo'g'i sharbatin,

Qalb gavhari qimmatin,  
Ko'ngillarni shod etgan,  
Qaysi shirin so'z ekan?

O'quvchilar: – Assalomu alaykum

O'qituvchi: – Vaalaykum assalom  
Ko'zlari munchoqlarim,  
Bilinga chanqoqlarim,  
Navbatchini bilayin?  
Davomatni so'rayin?

Navbatchi: – Utoz sizga ko'makchi,  
Bugun o'zim navbatchi  
Sinfda barchamiz jam,  
Darsdan qolmaymiz hech ham.

O'qituvchi: – Demak darsda hamma bor,  
Barchadarsgatayyormig'

Hoshimov Sarvar: – Bizlar yaxshi bolamiz,  
Ochilgan gul-lolamiz.  
Sinfdagi g'unchamiz,  
Darsga shaymiz barchamiz.

O'qituvchi: – Qaysi go'zal bir fasl,  
Yurtimizda kezmoqdag'  
Go'zal bayram ayyomlar,  
Borligin kim sezmoqdag'

Jo'rayeva Umida: – Hozir elda gulbahor,  
Har joyda gullar ifor,  
Bu faslda ayollar,  
Navro'z ayyomlari bor.

O'qituvchi: – Bugun sana nechanchi,  
Og'abekjon sen, ayt-chig'

Boltayev Og'abek: – Ustoz, bugun aprelnin,

O'n birinchi sanasi,  
Amir Temurday buyuk,  
Siymo tug'ilgan oyi.

O'qituvchi: –Aytingchi siz qay yurtning,  
Ertasi, bolasisizg'  
Ona yurt, ona elning,  
Farzandi, lolasisiz.

O'quvchilar: – Baxtli bolamiz har on,  
Yurtimiz O'zbekiston!

O'qituvchi: – Xursandman, sizga raxmat,  
O'zbekiston qanday davlatg'

Mauzerova Hilola: – Vatan biz yoshlar ishongay cheksiz,  
Qalblarda bir olov yonadi tengsiz,  
Shu yurtning farzandi bo'lmoqlik baxtdir!  
O'zbekiston – kelajagi buyuk davlatdir!

O'qituvchi: –Qo'limda bor shunday kitob,  
Ichin ochsam dur-u oftob,  
O'qing birga do'st-u o'rtoq,  
Sherlar, maqollar koni,  
Nedur bu kitob nomig'

O'quvchilar: –O'qish kitobimiz.

O'qituvchi: –Bu fan go'yo ummondir,  
Mo'jizalar makoni,  
O'rganganning qunt bilan,  
Ortar ilmi imkoni.  
O'rganamizmig'

O'quvchilar: –O'rganamiz qunt bilan,  
Yuraklarda o't bilan.

O'qituvchi: –bizning shior:

O'quvchilar: Kuch – bilim va tafakkurda!

O'qituvchi: – Barchaning katfiyati a'lomig'  
Unda darsni boshladik.

## 2. O'tgan darsni so'rash

O'qituvchi: – Bolajonlar biz o'tgan darsimizda qaysi mavzuni o'qib o'rgangan edik?

Ibragimova Shaxlo: – Somon, cho'g' va loviya ertagini o'qigan edik. Ertakni o'qib, ertak asosida rebus tuzish, rasmlarni chizib kelish kerak edi.

O'qituvchi: – uyga berilgan topshiriqlarni hammamiz tayyorladikmi? O'qituvchi o'tgan mavzuni mustahkamlash uchun o'quvchilarga tarqatmalar tarqatadi. Bu tarqatmalar REKLAMA metodi asosida tayyorlangan bo'lib unda quyidagicha yozilgan bo'ladi.

Reklama qiling:  
LOVIYA

Reklama qiling:  
SOMON

Reklama qiling:  
CHO'G'

O'quvchilar tarqatmalarni olgandan so'ng o'sha shaxs yoki predmetga xos sifatlar, hatti harakatlar, asardan parchalar, rolli ko'rsatmalar orqali reklama qilib berishlari kerak bo'ladi. Buni esa qolgan o'quvchilar nima yoki kim haqidagi sifatlar ekanligini aniqlaydilar. O'quvchilar baholanadilar.

O'qituvchi: – Ertak qahramonlarini sanab bering.

- Loviya, somon, cho'g' qanday uchrashib qolishdi?
- Loviya va somonning suxbatini gapirib bering.
- Somon nimaga daryoga tushib ketdi?
- Loviya qilgan ish to'g'rimi?
- Do'stlik haqida maqol bilasizmi?
- Somon, cho'g' va loviyani haqiqiy do'stlar deya olamizmi?

O'quvchilar savollarga javob beradilar, rag'batlantiriladilar. O'tgan mavzu yuzasidan bajarilgan rebuslar tekshiriladi. O'quvchilar rag'batlantiriladilar. O'tgan dars shu tariqa takrorlanadi.

### **3.Yangi mavzuning bayoni**

O'qituvchi doskaga sana va mavzuni yozadi. Yangi mavzu Qarg'a va tulki masalini ifodali o'qib beradi.

Qarg'a bir kun allaqaydan,  
 Jinday pishloq topib oldi.  
 Qo'noq tanlab qarag'aydan  
 Yemoqchiydi, o'ylab qoldi.  
 Baxtga qarshi osha yerdan  
 O'tib borar edi tulki.rak bunga juda  
 Pishloq hidin sezib birdan  
 Joyida taq to'xtadi-ku?  
 Qaraydiki, luqmayi pok,  
 Turar qarg'a tumshug'ida.  
 Tulki, axir, azaldanoq  
 Mazaxo'rak bunga juda  
 Asta keldi daraxt tomon,  
 Dum o'ynatib, u yon-bu yon.  
 Uzmay sira qarg'adan ko'z,  
 Tamshanganча boshladi so'z.  
 “Aylanayin do'mboqqinam,  
 Qosh-u ko'zi munchoqqinam.

Biram go'zal pat- u boling,  
Bo'yinlaing qaddu doling.  
Tarifingga so'z yo'q netay  
Girgitting bo'lib ketay.  
Farishtadan a'lodirsan,  
Kuylashda ham balodirsan.  
Bir sayrab ber, qaroqqinam,  
Tortinmasdan boshla qani,  
Qushlar shohi derlar seni.”  
Bu maqtovdan bo'lib shodmon,  
Qarg'a “qag” deb o'giz ochdi.  
Pishloq yerga tushgan hamon,  
Ayyor tulki olib qochdi.

O'qituvchi: Bolajonlar, deylik sizlarni kelajakda 3ta kasb kutmoqda: uchuvchi bo'lish, Jurnalist bo'lish va harbiy bo'lish. Ayting-chi kim qaysi kasbni tanlagan bo'lardi. Tanlangan kasblar bo'yicha o'quvchilar guruhlariga bo'linadilar va o'zlariga nom tanlaydilar.

Chaqqonlar. Topqirlar. Ziyraklar.

O'qituvchi: Bolajonlar, meni diqqat tinglang.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim-qadim zamondamas, ayni hozirgi kunlarda uzoqda, bir katta dengiz bo'lgan ekan. Bu dengizning o'rtasida chiroyli va hushmanzara orol joylashgan bo'lib, bu orol o'simlik va hayvonlarga boy ekan. Orolning malikasi bo'lgan ekan. Bu malika shu katta dengizning kichkina, ammo, go'zal tilla baliqchasi ekan. U faqat tilla emas, balki sehrli ham ekan. Uning sehri faqat ezgu niyatlarda ijobat bo'larkan. Kunlardan bir kuni nima bo'libdi-yu, shu orolni begona, yovuz niyatli kimsalar bosib olibdilar. Chiroyli tabiat manzaralarini yo'q qilib tilla baliqchani izlashga tushibdilar. Beozor hayvonlarni o'ldirib, chiroyli o'simliklarni payhon qilib tashlayveribdilar. Bundan xabar topgan tabiatni muhofaza qiluvchi qutqaruv kemalari bir vaqtda yo'lga tushishibdi. Bu kemalar (guruh nomlari aytiladi)

sizlarning kemangizdir. Bolajonlar tilla baliqchani qutqarishga boramizmi? Tilla baliqchaga yordam berishga hamma tayyormi? Buning uchun sizdan faqat bilim, o'tkir zehn va aql-idrokli bo'lish talab qilinadi. Agarda qaysi guruh manzilga savol-javoblar, topshiriqlar, yo'ldagi qiyinchiliklarni yengib 1-yetib borsa, tilla baliqchaga ega bo'ladi. Tilla baliqcha esa sizning ijobiy istak va tilaklaringizni barchasini amalga oshiradi. Hamma tayyormi? Unda dengizda suzishni boshlaymiz. Yelkanlar tushirilsin olg'a...

#### **4. yangi mavzuni mustahkamlash**

##### **1-topshiriq**

Tarqatmalar tarqatilgandan so'ng guruhlar topshiriqlarga tayyorgarlik ko'radilar. Belgilab berilgan vaqt tugagach har bir guruhdan o'z fikrlarini bayoni haqida so'raladi. Har bir guruh javobini tinglab olgan holda muhokama olib borishadi.

Maqollar aytiladi: Ozga qanoat qilmagan ko'pdan qolur.

Ko'p bo'lsa ketar, kam bo'lsa yetar.

Eng yaxshi fikrlar bildirgan guruh g'olib deb topiladi. O'quvchilar nomdor jetonlar bilan taqdirlanadilar.

O'qituvchi: Aziz bolajonlar mana bitta guruhimiz oldinga qarab suzib ketyaptilar, boshqa guruhlarimiz ham jadalroq harakat qilishlarini istardim. Baliqchaga yordam berishimiz kerak axir.

##### **2-topshiriq:** Baliqchani baliqlar orasidan qidirish.

Bunda qarmoqlar yordamida karton qog'ozdan tayyorlangan baliqchalar ovlanadi. Baliqchalarning orqa tomonida yozilgan savollarga javob berish kerak.

Savollar:

–Masal nima?

–Masal qahramonlarini sanab bering.

–Qarg'a topib olgan pishloqqa tulkinging haqqi bor edimi yoki yo'qmi?

–Tulki qarg'ani nima deb maqtadi?

–Maqtovga uchgan qarg'aning holi nima kechdi?

O'qituvchi: Qaysi guruh vakillari baliqchalarni tez ovlab, savollarga to'g'ri javob bersa yulduzchali jetonga ega bo'ladilar. Manzilga tezroq olib boradigan yo'lni ham topadilar.

O'quvchilar baholanadilar.

**3-topshiriq:** Guruhlar o'zaro REKLAMA metodi asosida bellashadilar. Qarg'a tulkiga xos sifatlarni ochadilar. Faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadilar va guruhlariga jiton olib beradilar.

O'qituvchi: Bolajonlar tilla baliqchamizni qidirishda davom etamizmi Dam olish masqlarini bajarib olaylik. Keyin yana sayohatimizga qaytamiz.

O'quvchilar: Bo'lay desang bo'bon

Yo vatanga pospon,

Yo dengizda suzuvchi,

Yo osmonda uchuvchi.

Nimaki qilsang tilak,

Bariga o'qish kerak.

O'quvchilar she'rni harakatlar bajarib aytadilar.

**4-topshiriq:** “Zanjir” o'yini o'ynaladi. O'qituvchi bir turga mansub narsalar nomini aytadi. O'quvchilar esa unga tegishli narsa nomini topib aytadi. Masalan: – “sinf jihozi”, –“xattaxta”. To'xtab qolgan guruh o'yinni to'xtatadi. G'olib guruh rag'batlantiriladi.

## **5. Darsning yakuni**

G'olib guruh aniqlanadi. Ularga tilla baliqcha sovg'a qilinadi.

O'qituvchi: Aziz bolajonlar bugun darsda barcha o'quvchilarimiz faol ishtirok etishdi. G'olib guruhimizni tabriklaymiz, qolganlar esa boshqa darslarimizda yana ham yaxshi ishtirok etishadi. Shunga harakat qilishadi. Biz bir-birimiz bilan ahil inoq o'zbek farzandlarimiz!

O'quvchilar: Tarqalibmas, to'planib,

Jamlanib har jolasi.

Bir tan-u bir jon bo'lib,

Ulg'ayar, o'zbek bolasi.

Biz ahil, olam ahil.

Gul-u giyohlar ahil.

Tog'dagi toshlar ahil.

Bog'da yaproqlar ahil.

Dars yakunida o'quvchilar baholanadilar. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar ismi aytib o'tiladi. Ular rag'batlantiriladi.

## 6.Uyga vazifa

Uyga "Qarg'a bilan tulki" masaliga oid rasm va rubus ishlash hamda masalni ifodali o'qib kelish

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ertaksevar, o'yinqaroq bo'lganliklari uchun ham Reklama metodi darsda yaxshi samara beradi.

### Reklama metodining afzalligi:

- O'quvchilar nutqi ravonlashadi;
- Mustaqil, erkin fikrlashga o'rgatadi;
- O'quvchida darsga qiziqishni oshiradi;
- O'quvchilarning kitob o'qishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytiradi;
- Og'zaki nutqi shakllanadi;
- So'z boyligi oshadi;
- Bilishga qiziqishini badiiy asarga hurmatini oshiradi;
- O'quvchilarni tez fikrlashga o'rgatadi;
- O'quvchida diqqatni jamlash ko'nikmasini hosil qiladi;
- Savollarga to'liq javob bera olishga o'quvchini o'rgatadi.

Quyidagi jadvalda REKLAMA metodi va boshqa interfaol metodlarni qo'llashning samaradorlik darajalarini ko'rsatamiz.

Interfaol o'qitish metodlari	Nazariy bilimlarni	Faktik bilimlarni	Kitob o'qishga bo'lgan ishtiyoqini	Tafakkurni	Nutqini	Bilishga qiziqishni	Tafakkur mustaqilligini
Aqliy hujum	Q	Q	Q	Q	Q		Q

	BBB	Q	Q	Q	Q	Q	Q!	Q
	Klaster	Q	Q	Q	Q!	–	Q	Q
	Kichik guruhlarda ishlash	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q
	Pinbord	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q
	“Nima uchun?”	Q	Q	–	Q	–	Q	Q
	<b>REKLAMA</b>	<b>Q!</b>	<b>Q</b>	<b>Q!</b>	<b>Q!</b>	<b>Q!</b>	<b>Q!</b>	<b>Q!</b>

Izoh: Q! – masalani birmuncha muvaffaqiyatli yechadi; Q - masalani asosan yechadi; –masalani yecha olmaydi.

Bu metod orqali ham darsni mazmunli tashkil etish, ham o’quvchilar dunyoqarashini yuksaltirish, ularda badiiy obrazni rollarda kirishni shakllantirish mumkin.

## **UMUMIY XULOSALAR VA TAVSIYALAR.**

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki bugungi dunyo miqiyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalar qatorida ta'lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi ehtiyojidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi texnika va texnologiyani chuqur bilishi, tahlil qila olishi va yangilik yaratilish darajasida bilimli va mahoratli bo'lishi juda muhim. Buning uchun darsni tashkil etish jarayonida barcha o'quvchilarga tushunarli, oson, qiziq bo'lgan usullarni tanlashi va qo'llay olishi, ko'rgazmali qurollardan foydalanishi, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiq qilishi, ta'lim oluvchilarni ijodiy, mustaqil ishlashga undashi, pedagogik texnologoyalardan to'g'ri va unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish kabilar umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta'kidlangan.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanishda kafolatli natijani ko'zlab, zamonaviy hamda samarali yo'llarni tanlab, biri har bir narsa va hodisaga majmua sifatida yondoshish zarur. Aks holda faoliyat an'anaviylikni ifoda etib qoladi. Shu nuqtai nazardan har qanday pedagogik texnologiya tamoyillari markaziy o'rinda turishi kerak. Shundagina faoliyat zamonga mos bo'lib, jamiyat ijtimoiy buyurtmasini sharaf bilan bajarish mumkin.

O'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda ham an'anaviy usullardan farqli o'laroq, yangicha pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish va ta'lim jarayonida qo'llash zamon talabidir. Dars jarayonida yangicha muhitni shakllantirish, zamonaviy ko'rgazmalardan, interfaol metodlardan foydalanib mazmunli olib borish zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari boshqarishga moyil, qiziquvchan, ta'sirchan bo'lganliklari uchun ham o'qituvchidan o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lgan, darsni oson o'zlashtirishlarini, bilimlarni mustahkam o'rganishni kafolatlaydigan metodlarni tanlashi va foydalanishi talab etiladi.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanishda ta'limning mazmunini belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchilarning bilimlarni keng egallashi va ma'naviy fazilatlarni o'zlashtirishga yunaltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash ularni ob'ektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'qish darslari jarayonida erkin va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. Mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanishi natijasida, o'quvchilar atrof olamdagi, jamiyatdagi qonunlarni, shuningdek, asardagi ijobiy va salbiy qahramonlar orqali lar insoniy fazilatlarni anglash, bilimlarni chuqur o'rganish, keng fikrlash, tegishli qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Darslarni samarali va sifatli tashkil etish uchun pedagogning tashkiliy hamda uslubiy jihatdan tayyorgarligi va ta'lim olish jarayonini tashkil etishni ta'minlovchi o'quv-uslubiy ta'minotni ishlab chiqish talab etiladi. Taminiot bazasida o'quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash imkoniyati bo'lishi muhim.

Bitiruv malakaviy ishimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishda qo'yiladigan didaktik talablar hamda asosiy e'tiborni qaratish kerak bo'lgan jihatlar yoritib berildi, boshlang'ich sinflarda "Reklama" metodidan foydalanildi hamda shu asosda tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini rivojlantirishda faol ta'lim usullarini qo'llash imkoniyatlari o'rganilib, mohiyati yoritib berildi.

Olib borgan ishimiz natijasi va xulosalarimiz asosida quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisobladik.

1. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari muntazam ravishda pedagogik texnologiyalardan qo'llashlariga erishish.

2. Ta'lim jarayoni asosida o'quvchining erkin tafakkurini shakllantirish va ijtimoiy xayotga tayyorlashga erishish.

3. Har bir o'qituvchi o'quvchining diqqati, e'tiborini jalb qilish uchun o'qish darslarida texnologik yondoshishga o'rgatish.

4. O'qituvchi mahoratini oshirish uchun tajribali o'qituvchining ishlarini doimiy kuzatib borishlarigi erishish.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». - T.: O'zbekiston, 1997-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining «ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997-yil.
3. Karimov I.A «Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yuksaltirishdir». T.: O'zbekiston, 2010-yil. 48-bet.
4. Karimov I.A Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur»jurnali, 1998-yil, 2-son, 29 bet.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.–T.: Ma'naviyat,2008-yil
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.- T.: O'zbekiston, 2000-yil
7. Avliyoqulov N.X., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2008-yil
8. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001
9. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok. diss. T., 2003-yil
10. Azizxo'jaev N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Reklama - rejalar). – Toshkent, 2002-yil
11. Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo.- T.: «Moliya», 2002-yil.

12. Beruniy. Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. Tosh- kent, 1968-yil. 106-107-b.
13. Bepalko V.P. Slagaemie pedagogicheskoy texnologii – M.: «Pedagogika», 1989-yil.
14. Bepalko V.P. Pedagogika i progressivnie texnologii obucheniya. – M.: 1995-yil.
15. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. nashriyoti, 1993. 182-184-185-b.
16. Farberman B.L. Progressivnie pedagogicheskie texnologii.-T.,1999, st.3.
17. Bozorova M, Norpo'latova X. "Ta'limni faollashtiruvchi metodlar", Metodik qo'llanma TermDU ilmiy kengashida ko'rib chiqilib nashrga tavsiya qilingan, 2010 yil
18. Ibragimov R. Boshlang'ich maktab o'quvchilarida bilish, faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Diss. T., 2001-yil
19. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T:, 2008-yil
20. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T:, 2010-yil
21. Nishonaliev U. Ta'lim standarti va pedagogik innovatsiyalar. – «Xalq ta'limi», 1999-yil
22. Nazarova T.S. Pedagogicheskaya texnologiya: noviy etap evolyusii.-T. 1999-yil,16 b
23. Nazarova T.S. Pedagogicheskaya texnologiya: noviy etap evolyusii.-T. 1999,16 b
24. Mallayev O. Yangi pedagogik texnologiyalar. T. 2000-yil
25. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Karshi «Nasaf», 2000-yil
26. Rozikov O., Og'aeв S., Maxmudov A., Adizov B. Ta'lim texnologiyasi. – Toshkent «O'qituvchi» 1999-yil
27. Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati. – «Xalq ta'limi», 1999-yil 1-son, 97-102 betlar.

28. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003-yil
29. Sayidaxmedov N.S., Ochilov A., Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi.- RTM, 2000-yil 55-bet.
30. Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar: Nazariya va amaliyot – Toshkent, «Moliya», 2003-yil
- 31 Tolipov O', M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. 2005-yil.
32. Tursunov I. Yangi pedagogik texnologiya va uning istiqboli.- «Xalq so'zi», 1999 yil
33. Yangi pedagogik texnologiya: taxlil, ta'rif, muloxazalar (O'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar) Tuzuvchi muallif X.Hakimjonov Prof. N.Sayidaxmedov umumiy taxriri ostida–Toshkent, 200-yil
34. G'oziev E. Pedagogik texnologiyaning psixologik asoslari. – «Xalq ta'limi», 1999-yil 6-son, 36-38 betlar.
35. Zaripov K. Yangi pedagogik texnologiyani tadbiiq etish bosqichlari. – «Xalq ta'limi», 1997-yil 4-son, 4-12 betlar.
36. Ziyomammedov Abdullayeva B.Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot «Ma'naviyat asoslari» darsi asosida ishlangan uslubiy qo'llanma.- Toshkent, Abu Ali Ibn Sino nomli tibbiyot nashriyoti, 2001-y
37. Ziyomhammadov B., Tojiev M. Pedagogik texnologiya. T:, 2009-yil

